

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK:**

**TOLLIBOEV DILSHOD MUHAMMADIEVICH  
IJTIMOIY VA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT DIALEKTIKASI  
5A 111601 – Ma‘naviyat asoslari**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertasiya**

**Ilmiy rahbar:  
Prof. J.Y.Yaxshilikov**

**Samarqand - 2016**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-7</b>
<b>I BOB. IJTIMOY VA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOTNING JAMIYAT VA TABIAT BARQARORLIGIDA TUTGAN O‘RNI VA TA’SIRI.....</b>	<b>8-36</b>
1.1 Ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot birligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari .....	8-18
1.2 Hozirgi davrda ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari, tendensiyalari va tabiatga ta’siri .....	18-25
1.3 Ijtimoiy va ilm-fan taraqqiyotida ilmiy maktablarning o‘ziga xos ahamiyati.....	25-36
I bob bo‘yicha xulosa.....	36
<b>II BOB. IJTIMOY VA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT – MA’NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASH NEGIZI.....</b>	<b>37-49</b>
2.1 Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida ilm-fan va ma’naviy ishlab chiqarishning roli va ahamiyati.....	37-42
2.2 Ilmiy-texnik taraqqiyotda axborot texnologiyalarining yoshlar ma’naviy ongidagi o‘rni.....	42-49
II bob bo‘yicha xulosa.....	48-49
<b>III BOB. IJTIMOY VA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI: TEXNOGEN SIVILIZATSIYA VA MA’NAVIY INTEGRATSIYA.....</b>	<b>50-70</b>
3.1 Globallashuv sharoitida ilmiy-texnika taraqqiyotida texnogen sivilizatsiyaga munosabat.....	50-62
3.2 Ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotda - ma’naviy integratsiya.....	62-70
III bob bo‘yicha xulosa.....	70-71
<b>XULOSA.....</b>	<b>72-74</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>75-78</b>

## Kirish

### DISSERTASIYANING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** XXI asrga kelib ilm-fan, texnika shu darajada rivojlandiki, er yuzidagi deyarli butun insoniyat aql bovar qilmas yutuqlarga erishib, og'iri engil, uzog'i yaqin, ishlab chiqarish samaradorligi rivojlangan bir davrga to'g'ri keldi. YA'ni, hozirgi davr yadro energiyasi, quyosh energiyasi, ximiyani yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, hamda fan-texnikaning boshqa yanada murakkab sohalarini o'zlashtirish bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ko'p muammolar paydo bo'laveradi. Ushbu muammolarni uzluksiz ravishda ketma-ket echib turish lozim bo'ladi. Aks holda taraqqiyot sur'atlari pasayadi yoki umuman jamiyat taraqqiyotidan to'xtab tanazzulga tomon rivojlanishi mumkin. Globallashuv davrida ushbu muammolarni echishning hal qiluvchi vositasi bu ilm-fandir. Fan asosida ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarining tez sur'atlar bilan va uzluksiz davom etishini ta'minlab turish mumkin. SHu sababli mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyotiga, fan rivojiga, yosh olimlar ijtimoiylashuvi jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib va o'zimizning tajribamizga asoslanib ta'kidlash lozimki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bugungi ilmiy-texnika taraqqiyoti belgilovchi ahamiyatga ega. Usiz taraqqiyot amalga oshmaydi va jamiyat ziddiyatlar girdobida qolib ketadi. SHu sababli mamlakatimizda ilm fan rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ilmiy-texnika har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O'zbekiston zamini azaldan bashariyat sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan, jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo'nalishini ma'lum darajada belgilab bergan ulug' allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan. Bugungi kunda ham olimlarimiz buyuk ajdodlari an'analarini munosib davom ettirib, mustaqil Vatanimizning

ilmiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti yo'lida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, ushbu dissertasiyada ham ijtimoiy va ilmiy texnika taraqqiyotining fuqarolik jamiyati rivojlanishiga ta'siri hamda ularning tarixiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga qaratiladi. Muhimi, ilmiy-texnika taraqqiyotining bizning mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini va mamlakatimizning ijtimoiy hayot sohasida moddiy-texnika bazasida takomillashtirishdagi ta'sirini ko'rsatishga asosiy e'tibor berilgan.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot dialektikasini qiyosiy tahlil qilishni o'rganish tadqiqot ob'ektini tashkil qilsa, ilmiy-texnikaning jamiyatimiz ravnaqida tutgan o'rni va uning ijtimoiy taraqqiyotda ta'siri, shuningdek, ilm-fanni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish va uni rivojlantirish yo'llari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

**Ishning maqsadi va vazifasi.** Magistrlik dissertasiyasining maqsadi O'zbekistonda ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining shakllanishi hamda rivojlanishining nazariy-ilmiy, konseptual asoslarini tahlil etish va samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar, ilmiy-nazariy hamda amaliy takliflar tayyorlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotini nazariy tahlil etish;
- ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining maqsad va vazifalari, mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash;
- mamlakatimizda fuqarolik jamiyati barpo etishda ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining shart-sharoitlari va tamoyillarini belgilash;
- hozirgi sharoitda ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy omillari va dinamikasini ko'rsatib berish;

– ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayishidagi yangi tamoyillarini ochib berish;

– globallashtirish sharoitida O‘zbekiston ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va texnogen sivilizatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatib berish;

– ijtimoiy va ilmiy texnika taraqqiyotining tarixiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqlik dilektikasini tadqiq qilish va boshq.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** O‘zbekistonning ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyoti bo‘yicha yangi ilmiy ish bo‘ladi va doktorlik ishi uchun nazariy manba bo‘ladi.

**Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy shakl-shamoyillari, rivojlanish darajasi va omillari, uning integratsiyalashuvi, shuningdek ilmiy-texnika taraqqiyotining mohiyatini xorijlik olimlardan A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, R.Fisher, P.Samuelson, S.Dronbush, P.Klayn, L.I.Abalkin, N.A.CHerkasov, YU.N.Paxomov, N.Mejevich, V.SHimov, G.N.Volkov, V.G.Maraxov, V.V.Samarin, V.G.Afanasev va boshqalarning<sup>1</sup> ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan S.S.G‘ulomov, E.Aliqulov A.O‘lmasov, SH.SHodmonov, R.X.SHodiey, N.Tuxliev, A.V.Vaxobov, YO.A.Abdullaev, A.Vaxobov, K.Asrinov, A.Raxmatullaev, T.Juraev, S.Abdullaev, G.Maxmudov, L.A.Alibekov, S.A.Nishonov, J.YA.YAxshilikov va boshkalar<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> A.Smith, An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, ed.: E.Cannan (New York: The Modern Library P., 1994) , D.Ricardo, On the Principles of Political Economy and Taxation (New York: Prometheus Books P., 1996); Marshall, The Pure Theory of Foreign Trade–The Pure Theory of Domestic Values (New York, Augustus M.Kelley P., 1987); Фишер Р., Дорнбуш С., Экономикс. – М.: Дело Лтд, 1995. – 864 с. P.A.Samuelson, Economics, (New York: McGraw–Hill/Irwin P., 1997); Национальная экономика Беларуси: потенциалы, хозяйственные комплексы. Направления развития. Механизм управления./ Под общ. ред. д.э.н., проф. В.Н.Шимова. Минск, 2005, – С.17. Волков Г.Н. Истоки и горизонты прогресса. – М.: 1981 г. Марахов В.Г. Материалистическая диалектика. Т.4.-М.: 1984. Самарин В.В. Техника и общество. –М.: Мысль, 1988. Афанасьев В.Г. Научно-техническая революция, управление, образование. –М.: 1972.

<sup>2</sup>Ўлмасов А., Вахобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик, Т.: Шарқ, 2006, 480 б; Шодмонов Ш., Алимов Р., Жўраев Т. «Иқтисодиёт назарияси» академик С.С. Ғулумов тахрири остида Т.: Молия - 2002

mavzuni o'rganishga ma'lum xissa qo'shdi.

SHu bilan birga globallashuvning hozirgi inqirozli jarayoni sharoitida ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanish darajasi, shart- sharoitlari, mezon va ko'rsatkichlari, omillari va o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq nazariy taxlil etish, bu jarayonda ilm-fan taraqqiyotining umumiylik va ziddiyatlarni o'rganish tadqiqot mavzusini tanlashga asos buldi.

**Tadqiqot uslubiyati va uslublari.** Tadqiqotni metodologik asoslari va konsepsiyasini ishlab chiqishda ilmiy-texnika sohasida olimlar tomonidan yaratilgan ta'limot va nazariyalar va shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutq va ma'ruzalaridagi nazariy qoidalar va xulosalar alohida ahamiyatga ega. Ularda mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot yo'li bilan birga ilmiy-texnika yutuqlarining asosiy tamoyillari ifodalanilgan, shuningdek ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish zaruriyati asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Dissertasiyani metodologik qismini I.A.Karimovning asari tashkil qilishini hisobga olib, Prezident asarlarini nazariy o'rganish manbasi bo'lib xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa tadqiqot manbalaridan 5111600 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'tiladigan fanlarda foydalanish mumkin.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.**

Ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida ko'p muammolar paydo bo'laveradi. Ushbu muammolarni uzluksiz ravishda ketma-ket echib turish lozim bo'ladi. Aks holda taraqqiyot sur'atlari pasayadi yoki umuman jamiyat

---

й. – 416 б.. Тўхлиев Н.Т., Ҳақбердиев К., Эрматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. Т.: «ЎзМЭ», 2006. -280 б. Абдуллаев С.О. Бозор иқтисодиёти шароитида миллий маҳсулот ва уни кўпайтириш муаммолари. – Т.: Молия 2004 й. 140 б. Алибеков Л.А., Нишоннов С.А. Фан-техника тараққиётида табиат ва инсон. –Т.: Ўзбекистон, 1984. Яхшиликков Ж.Я. Илмий тўплам. «Илмий техника революцияси ва инсон омили». Самарқанд, 1993 й. “Глобал олий таълим тизимида илмий тадқиқотларнинг замонавий услублари” мавзусидаги халқаро илмий конференция. – Навоий-2015, 64-67-бетлар. “Фан ва таълим интеграциясининг назарий-амалий муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-назарий семинар материаллари.Тошкент-Самарқанд-Бухоро-2014, 16-21-бетлар.

taraqqiyotidan to'xtab tanazzulga tomon rivojlanishi mumkin. Globallashuv davrida ushbu muammolarni echishning hal qiluvchi vositasi bu ilm-fandir. Fan asosida ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarining tez sur'atlar bilan va uzluksiz davom etishini ta'minlab turish kerak. SHu sababli ushbu dissertasiyada ilmiy-texnika taraqqiyotiga, fan rivojiga, yosh olimlar ijtimoiylashuvi jarayoniga va ilmiy-texnik taraqqiyotda fuqarolik jamiyati rivojlanishiga ta'siri hamda ularning tarixiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga katta e'tibor qaratilgan. SHuningdek, ilmiy-texnika taraqqiyotining bizning mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini va mamlakatimizning ijtimoiy hayot sohasida moddiy-texnika bazasida takomillashtirishdagi ta'sirini ko'rsatishga asosiy e'tibor berilgan.

Ushbu dissertasiyaning yangiligi ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot dialektikasini tahlil qilish asosida mamlakatimiz ilm-fani salohiyatini yanada mustahkamlash va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashdan iboratdir.

**Ish tuzilishi va tarkibi.** Dissertasiya ishi \_\_\_ betni tashkil etib, kirish, asosiy qism, uchta bob, 6 ta paragraf, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. IJTIMOIIY VA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOTNING JAMIYAT VA TABIAT BARQARORLIGIDA TUTGAN O‘RNI VA TA’SIRI.**

### **1.1. Ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot birligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakillantirishda hozirgi davrda ilmiy-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish asosida mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish, hamda uning keltirib chiqarayotgan ijtimoiy oqibatlarini chuqur atroflicha o‘rganishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish negizida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini mustaxkamlash, hamda uning keltirib chiqarayotgan oqibatlaridan inson va jamiyat manfaatlariga mos keladigan to‘g‘ri yo‘nalish kasb etishi kerak.

Darxaqiqat davrimizning eng buyuk va ko‘p qirrali xodisalaridan bo‘lgan ilmiy-texnika inqilobining qudratli o‘zgaruvchan ta’siri natijasida ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zaro munosabatlar oqibatida iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot sohasida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’sirida jamiyat taraqqiyoti muttasil takomillashib, yangi-yangi texnologiyalarni ishlab-chiqarishga tatbiq etilishi samarasida maxsulot ishlab-chiqarish samaradorligi oshib, ishlab chiqarilgan maxsulotlar sifati tubdan yangilanib bormoqda, natijada odamlarning yangi texnologiyalar to‘g‘risidagi bilimlarning kengayishiga olib bormoqda.

Xozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’sirida soxalar bo‘yicha xilm-xil kasbga ega bo‘lgan ilmiy-texnika xodimlar soni muttasil o‘sib bormoqda. O‘tmishda ba’zi bir olimlarning farazlaricha, kelajakda olimlarning soni ko‘payib boradi. Masalan, o‘z vaqtida ingliz olimi Jon Bernal fikricha, kelajakda olimlar va ularga xizmat qiluvchi kishilarning soni voyaga etgan umumiy axoliga nisbatan beshdan bir qismini, sobiq sovet ittifoq akademigi Nesmiyanov fikricha, axolining yarmini tashkil qiladi.



Sobiq ittifoq davrida yashagan akademik V.B. Glushkov fikricha, ilmiy xodimlar sonining ko‘payishi hozirgi darajada davom etaveradigan bo‘lsa, 100-150 yildan so‘ng olimlarning soni ming marta o‘sgan bo‘lib er shari axolisining juda ko‘pchiligi ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullangan bo‘lardi.

Fan-texnikaning jadal o‘sishi va yangi-yangi kashfiyotlarning ochilishi shu qadar tezki, hozirgi kunda sayyoramizda har 30 sekundda yangi bir kashfiyot sodir bo‘lmoqda. Ilmiy informatsiya miqyosi jadal sur‘atlar bilan tezlashib bormoqda. Yangi qilingan ixtiro bilan uni amalyotga, ishlab chiqarishga tatbiq etish o‘rtasidagi vaqt ham kun sayin qisqarib bormoqda. Ilgarilari bu oraliqdagi vaqt o‘n yillarni, xatto yuz yillarni tashkil etgan bo‘lsa, endilikda bu oraliq bir yoki bir necha yillarnigina tashkil etadi.

SHuning uchun yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Bugun biz tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz... Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axboratlashuv davri sifatida izoxlamoqda”<sup>3</sup>.

Fan-texnika inqilobining tasir doirasi juda universal-u jamiyatning moddiy texnika asoslarinigina emas, shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Uning zamirida dunyoni inqilobiy o‘zgartirishning juda muhim kuchi yashirinib yotibdi. Hozirgi zamon sharoitida juda katta muammolar fan-texnika inqilobi bilan bog‘liq holda hal etiladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning traditsion tarmoqlari takomillashuvi taqozasi bilan sodir bo‘ladigan miqdor o‘zgarishlari fan va texnikaning mohiyatini tubdan o‘zgartira olmaydi. Aksincha, sifat o‘zgarishlari davrida esa, fan va texnikada inqilobiy to‘ntarish sodir bo‘ladi. SHu o‘zgarishlar tufayli XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan va texnika o‘zining inqilobiy rivojlanish bosqichiga kirdi. YA’ni hozirgi davr yadro energiyasi, quyosh energiyasi,

---

<sup>3</sup> И.А. Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият” 2008 йил, 110 бет.

ximiyani yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, hamda fan-texnikaning boshqa yanada murakkab sohalarini o'zlashtirish bilan xarakterlanadi.

SHunday qilib, fan-texnikaning hozirgi rivojlanishidagi ikki asosiy yo'nalishni farqlash zarur. Ulardan biri-energetika, texnika, materiallar va xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlarining an'anaviy turlarini asta-sekin takomillashtirishdan iborat. Bunda avtomatika etakchi rolni o'ynaydi.

Fan-texnika taraqqiyotining ikkinchi yo'nalishi esa avvallari ma'lum bo'lmagan energiya, texnika, materiallar va texnologiyaga oid yangi turlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. SHu yo'nalishni fan-texnika inqilobi deb ataymiz. Kishilik tarixida fan-texnika inqiloblari ilgari ham bo'lgan. Ammo hozirgi fan-texnika inqilobi ilgarigilaridan farq qiladi. Bizning asrimizda fan-texnika inqilobi XVIII-XIX asrdagi texnika inqilobidan shu bilan farq qiladiki, u g'oyat keng xarakterga ega, moddiy ishlab chiqarish sohasini ham o'z ichiga oladi. Bu inqilobda ilmiy tadqiqot ishlarining roli oshib bormoqda. Birinchidan, ilmiy tadqiqotlar tarmoqlari va yo'nalishlarining ixtisoslashuvi chuqurlashganligi, ikkinchidan esa ular tobora integratsiyalashib, bir birining ichiga kirib borayotganligi fan-texnika inqilobining yana bir belgisidir.

Fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatidagi roli tobora ko'proq namoyon bo'layotgan bir davrda, uning ayrim muvaffaqiyatlari naqadar ulkan bo'lmasin, bu ayrim muvaffaqiyatlar emas, balki butun ishlab chiqarishning yuksak ilmiy-texnikaviy darajasi asosiy mezon bo'lib qolmoqda.

Fan-texnika inqilobining tashkiliy formalari va konkret sharoitlari ham o'zgarib turadi. Bu narsa, avvola, kasb-korni ixtisoslashtirishning kuchayishida, tadqiqotlarning umumiy xajmida uzoq muddatli ilmiy dasturlarning umumiy ko'payib borishida va eksperimental tajriba ishlarining xarakteri murakkablashishida o'z ifodasini topadi, bu esa o'z navbatida ana shu ishlarga sarflanadigan moddiy chiqimlarni ko'paytirishga olib boradi. O'tgan asrda

yashagan amerikalik olim D.Praysning fikricha, keyingi 40-50 yil mobaynida yangi ilmiy natijalar miqdorining ko‘payib borishi informatsiya xajmini 10 barovar, ilmiy xodimlar sonini 20 barovar xamda fanga va uning natijalarini o‘zlashtirishga ketadigan xarajatlarni 30 barovardan ziyod ko‘paytirishni taqozo etadi<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, ilmiy-texnika taraqqiyotining muhim belgisi sifatida mamlakatimiz rivojlanishini ta‘minlash milliy axborot sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

YUrtboshimiz ta‘kidlaganidek, “Keyingi 10 yilning o‘zida bosma axborot vositalarining soni 1,5 baravar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud telekanallarning qariyb 53 foizi, radio kanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi. SHuningdek, bosma materiallar va teleko‘rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda. ...yurtimizda internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur‘atlarda kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi”<sup>5</sup>.

YUrtboshimiz ta‘kidlaganidek, “Mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda ular 10 million 200 ming kishidan oshdi yoki mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Respublikamizda internetning o‘tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, internetga ulanish tezligi esa 1,5 marta ortdi. SHu bilan birga, undan foydalanish narxi 2013 yilga nisbatan 11,6 foizga kamaydi”<sup>6</sup>.

---

<sup>4</sup> Прайс Д. Малая наука, большая наука .-4 “Наука о науке” М., 1966, с 290.

<sup>5</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси//Т.19.-Т.:Ўзбекистон, 2011, 30-31-бетлар.

<sup>6</sup> Каримов И.А. “2015 йилда иқтисодийетимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом этириш ҳисобидан хусусийлик ва

Fan soxasida yuz bergan inqilobiy sakrashlar fan-texnika inqilobini avj oldirishga juda katta kashfiyotlar fan-texnika inqilobini jadallashtirgan manbalarning biri bo'ldi, kibernetika, kom'pyuterlarning beshinchi avlodi paydo bo'lishi bu inqilobni yana yuksakroq pog'onaga ko'tardi.

SHu sababli, hozirgi zamon fan-texnika inqiloblarini yagona bir termin bilan "Fan-texnika inqilobi" deyilishi maqsadga muvofiqdir<sup>7</sup>.

Fandagi kashfiyotlar bilan ularning ishlab chiqarishda o'zlashtirilishi o'rtasidagi muddatlar hozir har qachongidan izchilroq qisqarib bormoqda. Agar o'tmishda bu muddatlar bir necha asrga cho'zilgan bo'lsa, endigi kunda bir necha yildan oshmaydi. Bir vaqtlari fotografiya kashf qilinishi bilan uning joriy etilishi o'rtasida salkam 120 yil vaqt o'tgan. Atom energiyasidan tinch maqsadlarda amaliy ravishda foydalanish uchun atigi to'qqiz yil, lazerlardan foydalanish uchun besh yil, integral sxemalarni o'zlashtirish uchun esa bundan xam kamroq –uch yil vaqt kerak bo'lgan<sup>8</sup>.

Hozirgi davrda fandagi adabiyotlardan konstruktorlik loyixalariga bo'lgan vaqtinigi qisqarib borishi tendensiyasi yana ham qisqarib bormoqda. Masalan YAponiyadagi mashinasozlik zavodlarida ishlab chiqaraladigan mashinalarni yanada ko'proq ishlab chiqarish uchun jaxondagi boshqa zavodlarda ishlab chiqariladigan mashinalardan afzalroq bo'lishi uchun mashinasozlik institutini zavodga yaqinroq joyda tashkil qilishiga va institut ilmiy xodimlari ilmiy ishini bevosita zavod konstruktorlik bo'limlari laboratoriyalarda olib borib muttasil jaxon bozorida raqobatga bardoshli bo'lgan eng yangi texnika soxasidagi yangiliklarni joriy qilish asosida

---

хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир”// “Халқ сўзи”, Т.: 2015 йил 17 январь.

<sup>7</sup> Эргашев О.Ф. Яхшиликков Ж.Я., фан-техника революцияси ва кишлоқда социал ўзгаришлар. Т; “ФАН” нашриёти 1981, 6, 7, 9, бетлар. ўша муаллифлар. Илмий техника революцияси ва инсон омили. Самарқанд СамДу Нашри 1993 йил 5, 6, 10, 11 – бетлар.

<sup>8</sup> Волков Г.Н. истоки и горизонты прогресса и Социологические проблемы развития науки и техники. М. 1976, С 263.

yangilangan mashinalarni ishlab chiqarishga xarakat qiladilar, shu asosida shinam eng yangi dizayner yangiliklarni tadbiiq etib ham yoqilgi ketadigan chidamli mustahkam chiroyli mashinalarni ishlab chiqarishga harakat qiladilar, shu ishlarni amalga oshirmasa jaxon bozorida sinish oqibatida inqirozga olib kelishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, muhandis jamiyatda ijtimoiy tizimlashida muhim o‘ringa ega bo‘lgan, ziyolilarning tarkibiy qismidan biri bo‘lib ilmiy texnik taraqqiyotning asosiy ijtimoiy kuchidir. Muhandis-yangi texnika va texnologiyani yaratuvchi hamda uni ishlab chiqarishga joriy etuvchi amaliy kasbdir. Muhandislik faoliyati- jamiyatning ijtimoiy texnik talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishdagi texnika yo‘nalishlariga fan yutuqlarini qo‘llash orqali ongli tatbiiq qilishdir. Muhandis ijodi faolligi uning ijtimoiy roli, salohiyati, madaniy texnik darajasi kasb mahorati maqomiga bog‘liqdir<sup>9</sup>.

YUqorida qayd etilgan belgi va xususiyatlar g‘oyatda muhim, hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobi mohiyatini ochishga qaratilgan bo‘lsa ham, buni xali etarli darajada mukammal ifodalay olmaydi. CHunki hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobi hali tugallangan emas, u borgan sari avjlanmoqda, uning yangi-yangi qirra va tomonlari yanada rivojlanadi va takomillashadi.

Insoniyat paydo bo‘lganidan buyon o‘z maqsadlari yo‘lida bir butun ijtimoiy idivid sifatida dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar bilan o‘zaro aloqa, o‘zaro ta’sir asosida integratsiya (birlashish) negizida munosabatda bo‘lib, ularning mohiyatini bilishi, anglashi hamda o‘zlarining turli moddiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi negizida turli ilm sohalarining paydo bo‘lishiga ob’ektiv zaruriyat yuzaga kelgan. Buning oqibatida turli ilm sohalarining rivojlanishi davlatlar qudratining oshishiga xizmat qilgan.

---

<sup>9</sup> Ж. Яхшиликoв, Ш. С. Қўшақoв, О.А. Абдурасулов. “Мустваққилик ва мухандис-техник зиёлилар иждодий фаоллиги муаммолари Т., “ФАН” 2001 йил, 7 бет.

Ijtimoiy hayotda birlashishsiz ajralish va ajralishsiz yaxlit tarzda birlik yo‘q, bu o‘ziga xos qonuniyat tarzida namoyon bo‘ladi. Qadimdan bilimdan insonlar birlashib o‘zlari yaratgan fan sohalari bo‘yicha turli kashfiyotlarni yaratib, jamiyatning moddiy-ma‘naviy yuksalishiga beqiyos xissa qo‘shganlar. Turli ilm sohalarining rivojlanishi mamlakatlardagi barqaror tinchlik xolatiga ham bog‘liq.

YUrtboshimiz ta’kidlaganidek, “O‘rta asrlar SHarq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at, arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste’dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga etishi-bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha dadal o‘sishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liqdir”<sup>10</sup>. Darhaqiqat, tinchlik va barqarorlik bor mamlakatda ilm-fan markazlari, ta’lim muassasalari ravnaq topadi. Millodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va YAqin SHarq, O‘rta er dengizi mintaqasi kabi xududlarda mamlakatlarni o‘zaro bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘li nafaqat savdo yo‘li vazifasini o‘tagan, balki, bu Buyuk Ipak yo‘li halqlarni bog‘lovchi hamda bu yo‘lilarni tashuvchi yo‘l bo‘lib ham hisoblangan. Ilm sohiblari o‘z bilimini rivojlantirish maqsadida karvonlarga qo‘shilib ilm markazlariga borib, o‘z bilimlarini oshirganlar. Masalan, Najmiddin Kubro dastlabki bilimini Xorazmda olib, keyin Pomirga, keyinchalik Misrning Qoxira shahriga boribmadrasada o‘qib, ilmini oshirgan ekan. O‘sha davrda madrasani tugallash arafasida fanlar bo‘yicha yakuniy imtihon topshirilgan ekan. Imtihonda ta’lim olgan fan sohalari

---

<sup>10</sup>Ислом Каримов. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларнинг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиши маросимидаги нутқи. Самарқанд, “Зарафшон” газетаси, 2014 йил, 17 май.

bo'yicha vakillar savollar berib imtihon qilibdi. Hamma savollarga yuqori darajada javobni eshitgan madrasa boshlig'i (Ro'zbi Honiy) o'rnidan turib, boshida kiyib turgan kulohini kiydirib, sen endi ilm sohasida Kubro, ya'ni ulug' bo'lding degan. Najmiddin bitirgandan so'ng shu madrasada qolib ishlash niyati bo'lgan, shunda madrasa boshlig'i Najmiddin Kubroga endi olgan bilimlaringni mamlakatning yuksalishiga xizmat qil deb Xorazmga ketayotgan karvonga qo'shib yuborgan ekan.

Darhaqiqat, Buyuk Ipak yo'li mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq va axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qilgan. Yangi texnologiyalar va ishlanmalarning ipak, chinni, porox, qog'oz va boshqa ko'plab mahsulotlar tarqalishida, qishloq ho'jaligi ekinlari, agrotexnologiyalar hamda madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajargan. Bu negizida sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashinuvi uchun shart-sharoit yaratilgan. IX-XII asrlarda Bag'dodda Batul hikma (donishmandlar uyi), Xorazmda IX-XI asrlarda Ma'mun akademiyasi faoliyat ko'rsatib turli ilm sohalari bo'yicha yuzlab allomalar faoliyat ko'rsatgan. Bu o'ziga xos fanlar bo'yicha integratsiyaning ko'rinishi ham hisoblanadi. Shu davrning o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, asranomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq tabiiy fanlarning hamda tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'lgan. Xorazm Ma'mun akademiyasida kutubxona, madrasa, tarjimon va hattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan va unda yuzdan ortiq allomalar, toliblar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularga Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Ibn Hamid Naysaburiy kabi olimlar faoliyat ko'rsatgan.

Ilm-fan integratsiyasi rivojlanishi Mirzo Ulug'bek davrida o'zining yuqori pog'anasiga chiqdi. Mirzo Ulug'bek butun bilimi va kuch g'ayratini Turkistonda osoyishtalik, el-ulus ma'murchiligi, ilm fan taraqqiyoti va

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga sog'lom kuchlarni birlashtirishga bag'ishladi.

Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda yangi madrasalar qurib, ularga zamonasining taniqli olimlaridan muddarislar tayin etdi. Maqsad ulardagi ta'lim-tarbiya ishlarini yangi pog'onaga ko'tarib, xalqqa ma'rifatni yoyish edi. O'sha davrlarda amalga oshirilgan islohotlar diqqatga sazovordir. Madrasada o'rganiladigan fanlar tarkibida ilohiy bilimlardan tashqari dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Ulug'bek madrasadagi o'quv muddati 15-16 yildan farqli o'laroq 8 yil qilib belgilab, shunga yarasha o'quv rejasini ishlab chiqadi. Talabalarni o'qitishda ularni quyi, o'rta va yuqori guruhlariga bo'ladi. Beriladigan nafaqalar ularning o'qish saviyasiga qarab belgilaydi. Ulug'bek madrasada talabalarga yuqori saviyali ta'lim berish bilan bir qatorda muddarislarni mustaqil ravishda ijodiy ishlashga, fanning amaliy masalalari bilan shug'ullanishga undaydi. Natijada ilm-fan sohasidagi bu tadbirlar Samarqand nufkzini kundun-kunga oshirib borar, uning faqat ta'lim o'chog'i emas, balki ulkan ilm-fan va madaniy markazga aylanishiga imkon tug'dirardi.

Prof. A.Ahmedov ta'kidlashicha, "1420 yili Samarqand madrasasining ochilishi marosimi bo'ladi. Zayniddin Vosifiy "Badoi' ul-vaqoi" kitobida aytishicha, birinchi muddaris etib Mavlono SHamsuddin Muhammad Havofiy tayinlanadi. Madrasada asosiy ma'ruzalarni Qozizoda Rumi, Ulug'bek, Koshiy va keyinroq Ali Qushchi o'qiydilar"<sup>11</sup>-deb uqtiradi. YUqoridagi fikrlarga tayanib, hukmdor Mirzo Ulug'bek tomonidan Madrasa-yi Oliyanning ta'sis etilishidan va o'z faoliyatini, ya'ni toliblarni o'qitishni boshlagan davrdan boshlab Samarqand shahrida universitet tashkil topganligini e'tirof etish o'rinlidir. Akademik G.A.Pugachenkova fikricha ham mamlakatimiz xududida

---

<sup>11</sup>Ахмедов А. Мирзо Улуғбек. // Маънавият юлдузлари. Тошкент А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001, 174-бет.



oliy ta'lim tizimi tarixi qadim-qadimlarga borib taqalib, uning oliy dargohi Madrasa-yi Oliyalar o'z zamonasida hozirgi universitet mavqeida bo'lgan<sup>12</sup>.

SHuning uchun hozirgi universitetlarning paydo bo'lishi, ta'sis etilish tarixini ana shu mashhur Madrasa-yi Oliyalar bilan bog'lash mantiqan va tarixan maqsadga muvofiq bo'lib, mustaqillik davrida tarixni xolisona yoritish, tiklashning ajoyib namunasi bo'ladi.

Akademik Boturxon Valixo'jaev "Buni Samarqand davlat universitetining Mirzo Ulug'bek asoslagan Madrasa-yi Oliyalar majmuasining bevosita vorisi ekanligi misolida ham ko'rish mumkin. Bu gap barcha shaharlarda (Buxoro, Xiva, Toshkand va h.k.) azaldan mavjud bo'lgan Madrasa-yi Oliyalar va ularning vorislari bo'lmish universitetlarga ham taalluqlidir"<sup>13</sup>- deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, ta'lim tizimi, xususan oliy ta'lim va uning muassasalari rivojlanish tarixini chuqurroq o'rganishni hayotning o'zi ob'ektiv zaruriyat qilib qo'ydi. Zamonasining mashhur adibi Zayniddin Mahmudi Vasifiy Ulug'bek madrasasining ochilishiga bag'ishlangan ulamolar yig'ilishida 90 nafar olimlar qatnashganligi, unda madrasa muddarisligiga talabgor bo'lgan Mavlona Muhammad Xavofiy madrasaga ilk etakchi etib tayinlangani haqida yozadi. SHundan keyin turli yillarda madrasada 10 nafar olimning muddaris etib tayinlangani haqida xabar beradi.

Ulug'bek ilmiy maktabining tegishli olimlaridan Muhammad Xavofiy bo'lib, XIV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda tug'ilib, XV asrning boshlarida Samarqandga kelib bilimni oshirgan va qomusiy olim bo'lib etishgan. To rasadxona bitganicha turli fan sohasidagi olimlar birlashib (integratsiya) oldingi davrdagi olimlarning asarlarini o'rganish va sharhlashga kirishib, muhokama vujudga kelgan muammoning echimini topishga harakat qilganlar, shu tariqa ilm-fan yuksalib borgan.

---

<sup>12</sup>Пугаченкова Г.А. Архитектурные памятники Мовераннахра эпохи Улугбека. В сб. Ст.: Истории эпохи Улугбека. – Т: ФАН, 1996, ст. 241.

<sup>13</sup>Ботурхон Валихўжаев. Самарқандда олий таълим – Мадраса-йи Олия – университет тарихидан лавҳалар. Самарқанд, "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти", 2001, 14-жбет.

Mirzo Ulug‘bek Xavofiy bilan yaqindan tanishgach (1420), uning jami ilmlar bo‘yicha katta olim ekanligini e‘tirof etib, shunday baho bergan: “Agar bordiyu barcha kitob va risolalarni daryoga tashlasalar va biror ilmdan olamda asar qolmasada, u barcha ilmlarni hayotga qaytarishga qobildir. Bunda biror ilmdan va fandan nuqta yoki daqiqa nobud bo‘lmagay”,<sup>14</sup> - deb yuqori baho bergan.

Umuman olganda Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan integratsiyasi o‘zining yuqori pog‘onasiga erishgan, ya‘ni turli fan sohasida faoliyat olib borgan olimlar birlashib, fan sohasida yuzaga kelgan muammolar echimini izlab topib, mamlakat qudratini oshirishga xizmat qilgan. Bu jarayon uzluksiz tarixiy jarayon hisoblanadi. Tizimlar, davlatlar almashinaveradi, olimlar yaratgan ilm-fan sohasidagi g‘oyalar bilan mamlakat qudratini oshiraveradi. Bu qonuniy jarayondir.

Darhaqiqat, yurtimizda YUNESKO ishtirokida Xorazm Ma‘mun akademiyasining 1000 yilligi keng nishonlanganligi, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan ulkan e‘tiborning yorqin namunasi. Hozirgi kunda O‘zbekiston fanlar akademiyasi rahbarligida turli fan sohalari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarni birlashtirib, konkret vazifalar qo‘yib, mamlakat qudratini har tomonlama oshirishga qaratilgan fundamental ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga safarbar qilish ob‘ektiv zaruriyatdir.

## **1.2 Hozirgi davrda ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari, tendensiyalari va tabiatga ta‘siri.**

Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti tendensiyalarini, uning jamiyatdagi roli va funksiyalarini kompleks va chuqur o‘rganish fanning

---

<sup>14</sup>Ж.Я.Яхшиликков. Улуғбек даврида илм-фан тараққиёти. // Мирзо Улуғбек мероси ва ҳозирги замон. Илмий конференция материаллари. Т.: 2014, 34-35-бетлар.

quyidagi belgi va xususiyatlarga ega bo'lib, borayotganligini ko'rish imkonini beradi:

- ijtimoiy taraqqiyotda fanning roli kundan-kunga oshib bormoqda;
- fan ijtimoiy faoliyatning etakchi sohalaridan biriga aylanmoqda va boshqa sohalariga faol ta'sir ko'rsatmoqda;
- fan jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining umumiy integratsiyalovchi, tashkiliy-boshqaruvchi faktoriga aylanmoqda;
- differensial va integratsiya protsesslari chuqurlashib, integratsiya etakchi tendensiyaga aylanmoqda;
- fanlarning o'zaro ta'siri, turli bilim tarmoqlarining bir-biriga kirib borishi va o'zaro aloqalari kuchaymoqda;
- fanning asosiy komponentlari eksponensial ravishda o'smoqda;
- ekstensiv taraqqiyotdan intensiv taraqqiyot bosqichiga o'tish tendensiyasi shakllanmoqda;
- fanda bo'layotgan inqilob texnika inqilobi bilan qo'shib, yagona ilmiy-texnika inqilobini hosil qilmoqda;
- ilmiy tadqiqotlar kollektiv, kollegial va kompleks xarakterga ega bo'lmoqda, ya'ni "kichik fan"dan "katta fan"ga o'tilmoqda;
- fan taraqqiyotida planli, tashkiliy va boshqaruv faktorlari ortib bormoqda;
- fanning dialektiklashuvchi aloqasi mustahkamlanmoqda va h.k.

Tabiiyki, yuqorida ko'rsatilgan xususiyat va belgilar ilm-fan taraqqiyoti qonunlarini to'la qamrab ololmaydi. Ular asosiy xususiyat va tendensiyalarnigina xarakterlaydi. Bularning hammasi o'zaro birlikda, aloqadorlikda bo'lib, bir-birlariga ta'sir etadilar, bir-birlarini to'ldiradilar va boyitadilar.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti bevosita va aktiv ta'siri natijasida fanning yaqqol ko'zga tashlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy taraqqiyot davrida, tarixiy va yangi ma'lumotlarga tayanib jadallik bilan ilmga tayanib ishlashi lozim. Buning uchun zamonoviy ilm darajasi, madaniyati va amaliyot talabi darajasida sabot bilan ilm olishi va o'z-o'zini tarbiyalash o'ta muhim jihat hisoblanadi. Hayot insonlardan shuni talab qiladiki, buning uchun jamiyatning barcha a'zolari yuqori saviyada tarbiyalangan, o'zaro xamkorlik va tushunish orqali o'zlarini namoyon eta olishlari joiz.

Zero, mustaqillikni yanada mustahkamlash maqsadida, kishilar jamiyat boshqaruvida faol qatnashishlari uchun mumkin qadar chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari bugungi kunning eng muxim masalasidir.

Bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda ilmiy-texnika taraqqiyoti deyilganda provard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi.

XXI asrga kelib ilm-fan, texnika shu darajada rivojlandiki, er yuzidagi deyarli butun insoniyat aql bovar qilmas yutuqlarga erishib, og'iri engil, uzog'i yaqin, ishlab chiqarish samaradorligi rivojlangan bir davrga to'g'ri keldi. YA'ni, hozirgi davr yadro energiyasi, quyosh energiyasi, kimyo sanoatini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, hamda fan-texnikaning boshqa yanada murakkab sohalarini o'zlashtirish bilan xarakterlanadi.

SHu bilan birgalikda tarixiy taraqqiyoti davomida juda ko'p murakkabliklarga guvoh bo'lgan insoniyat bugun o'zining kashfiyotlari, ya'ni aqliy salohiyati natijasida vujudga kelgan murakkab tarixiy davrni ham boshdan kechirmoqda. YA'ni, fan-texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib, inson va tabiat

o‘rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon etkazmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov haqli ravishda, “Hozir, XXI asr bo‘lag‘asida, fan-texnika taraqqiyoti jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jug‘rofiy-siyosiy tuzilishi o‘zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib qolmoqda<sup>15</sup>”-deb, ta’kidlab o‘tadi.

Davlatimiz rahbarining ushbu mulohazalarini O‘zbekiston Respublikasi Ekologik harakati va O‘zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlikda Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida ekologik huquqiy ongni shakllantirish muammolariga oid fuqarolarning fikrlarini o‘rganish yuzasidan 2011 yilning mart oyida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari ham tasdiqlaydi. Xususan, respondentlarga “O‘zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashuvi holati nima bilan bog‘liq?” degan savol bilan murojaat qilinganda so‘rovda qatnashganlarning 69,2% fan va texnika hamda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi bilan deb javob bergan, 28,1% respondent mazkur holatni “funktsiyasi ekologik vaziyatni yaxshilashdan iborat bo‘lgan davlat organlari faoliyatining sustligi bilan” deb izohlaydi, 2,7% respondent O‘zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashuviga boshqa turli holatlarni ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ekologik vaziyatning yomonlashuvini so‘rovda qatnashganlarning ko‘pchiligi, ya’ni 69,2 foizi fan va texnika hamda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi bilan izohlagan<sup>16</sup>.

---

<sup>15</sup>Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари» Тошкент, -1997 й, 6-том.

<sup>16</sup> Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетининг Социология ўқув лабораторияси жорий архиви

Insoniyat bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiyoti yo‘lidan ketayotgani haqida da’vo qilishi mumkin, ammo, aslida bu taraqqiyot unga o‘zi o‘ylagandek faravonlik, tinchlik, baxt keltirganicha yo‘q, aksincha, uni global tanazzul holatiga tobora yaqinlashtirmoqda. Bu muammoni oshkora muhokama etmaslik, hal etishga harakat qilmaslik halokat yo‘lini tanlash demakdir. Insoniyat o‘z manfaati yoki ilmiy-texnika taraqqiyoti evaziga tabiatni qurbon qilishi oqibati boshi berk ko‘chaga kirib qolish bilan barobardir.

Insoniyat “sovuq urush” bahonasida o‘tgan asrning 50-90 yillardagi qurollanish poygasi, ommaviy qirg‘in kurollarining keng ko‘lamda ishlab chiqarilishi va ularni sinalishi, fan-texnika taraqqiyoti bahonasida biosferaga ko‘rsatgan ta’sir, sanoatning taraqqiyoti va uning natijasida atmosferani zararlash, tabiat resurslaridan nooqilona foydalanishlari va boshqa shunga o‘xshash omillar ta’sirida tabiatga katta zarar keltirdi. Bu esa o‘z navbatida barcha uchun hal qilish kerak bo‘lgan dolzarb muammoga aylandi.

Bu borada davlatimiz rahbari I.A.Karimov turli xil ekologik muammolar haqida jon kuydirib, jahon afkor ommasiga ularni bartaraf etish har bir vijdonli kishining burchi ekanligini quyidagicha ta’kidlaydi: “Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o‘zaro ta’siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida chegaralanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko‘lamida hal qilish zarur. Ko‘rinib turibdiki, tabiiy muhitni inson yuritadigan xo‘jalik faoliyatining zararli ta’siridan himoya qilish bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar keng ko‘lam kasb etadi. SHu sababli ular faqat xalqaro hamkorlik asosida hal qilinishi lozim<sup>17</sup>”.

Bugungi kunda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zaxiralardan xo‘jalik maqsadlarida ishlab chiqarish sanoatlarida tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi yildan-yilga

---

<sup>17</sup>Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари» Тошкент, -1997 й, 6-том.

o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal sur'atlarda qisqarishiga, cho'llanish jarayonlarining kuchayishiga, tuproqning buzilishiga, suvning sho'rlanishiga, atmosferaning ozon qatlami emirilishi, o'rtacha havo haroratining ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo'lmoqda.

SHuningdek, ilmiy-texnika yutug'i bo'lmish atom, kimyoviy qurollar va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaydigan muhit uchun juda katta xavf bo'lib qolmoqda.

Bugungi ekologik vaziyat tabiat va jamiyat uyg'unligini tabiiy yo'l bilan ta'minlash imkoniyatining yo'qligi bilan tavsiflanadi. Tabiiy barqarorlikni ta'minlash ko'p jihatdan antropogen faoliyatning xarakteriga hamda uning ekologik talablarga qay darajada mosligiga bog'liq. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek tabiatga antropogen omillarning ta'siri tobora kuchayishi natijasida tabiiy omillarning o'zaro bog'lanishi ma'lum darajada muvozanatdan chiqmokda. Bu esa er yuzida hayotiy jarayonning barqaror davom etishiga xavf solmoqda. SHu boisdan tabiiy muxitni asrash uchun barcha kurashishi lozimdir.

Bu borada AQSHlik huquqshunos olim Uilyam O. Duglas haqli ravishda, "Faqat kishilar ongida o'zgarish yasash kutilgan natijalarga olib keladi.

Agar biz o'zimizni biosferani saqlab qolmoqchibo'lsak, barchamiz yoshu-qari tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish uchun haqiqiy, faol va kerak bo'lsa agressiv kurashchilariga ayylanmog'imiz darkor"<sup>18</sup>- deb, ta'kidlab o'tgan edi.

SHuni alohida qayd etish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatida yuzaga kelgan ekologik

---

<sup>18</sup> Дуглас Уильям О. Трехсотлетняя война. Хроника экологического бедствия: Пер. с англ. – М., 1975. – С.238

muammolar ijtimoiy ongning barcha shakllari (axloqiy, siyosiy va huquqiy)ga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Ma'lumki, bugun inson ilmiy-texnika taraqqiyotida tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab etish hamda unga amal qilishni hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda tabiat qonuniyatlarini hisobga olish va ularni qo'riq va o'qib o'qitish atrof muhitga ta'sirini hisobga olish ekologik asoslashning hamda unga o'qib o'qitishning asosiy mezonini bo'lib xizmat qilish ilohiyatidir. Ularni bilish va hisobga olish, ekologik rayonlashtirish, tabiat zahiralari dan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini o'qitish, ekologik ekspertiza, sertifikatlashtirish va standartlashtirish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha choralar-tadbirlarini rejalashtirish, ekologik toza, chiqindisiz texnologiyalarni tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning shukabibosh qah ququqiy choralar-tadbirlarini amalga oshirish alohida ahamiyatga ega.

Bugungi fan-texnika taraqqiyotida O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi, uning aholisi salomatligi, shuningdek, ekologik xavfsizlik, tabiiy ekotizimlarni saqlash va atrof-muhitning mutanosib sifatini saqlab turish, tabiiy resurslardan oqib o'qitish va qayta tiklashga ko'p jihatdan fuqarolarning ekologik huquqiy ongini yuksaltirish orqali erishish mumkin. Buning uchun davlat siyosatining muvaffaqiyatli tegishli qonunchilik hujjatlarini yanada atakomillashtirishga o'g'ridan-to'g'rib o'g'liq bo'ladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lamini yanada kengaytirish va rivojlanib borayotgan, ilmiy-texnika taraqqiy etib borayotgan, bozoriq tisodiyot jarayonidainson va fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlarini to'g'rib o'qitish va rivojlanib borayotgan bugungi kunda shu voqelik kamosra vishdajoriy qonunchilik bilan birga, fuqarolarning



ekologik huquqiy ongivamadaniyatini yuksaltirishga oid faoliyatni ham takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi ilmiy-texnika taraqqiyotida qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta‘sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolarini hal etish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, shuningdek, har bir inson ongida ekologik madaniyatni shakllantirish barchaning o‘z oldidagi eng muhim vazifasi deb hisoblashi lozim. Ona tabiatga istiqbolni ko‘zlab munosabatda bo‘lish, kelajak avlodga uni go‘zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi ilmiy-texnika taraqqiyotining muhim vazifasi bo‘lib qolishi lozim. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo‘lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi.

### **1.3 Ijtimoiy va ilm-fan taraqqiyotida ilmiy maktablarning o‘ziga xos ahamiyati.**

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O‘zbekiston zamini azaldan bashariyat sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan, jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo‘nalishini ma‘lum darajada belgilab bergan ulug‘ allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, shu ma‘noda dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fanga aloxida e‘tibor qaratiladi. SHunisi e‘tiborliki, ilm-fan ijtimoiy asoslarda yoki davlat tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilmasin, u davlat ahamiyatiga ega bo‘ladi. O‘tmishda ham olimlar, ijod ahli faoliyati davlat rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Bizning zamonimizga kelib, u aksariyat davlatlarda xalq xo‘jaligining ajralmas sohasiga aylangan va u davlat tomonidan mablag‘ bilan ta‘minlanadi hamda uning ijrosi nazorat qilinadi.

Bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiyotida ilmiy maktablarning o'zni nihoyatda katta. Ilmiy maktablar masalasi xorijiy mamlakatlarda maxsus o'rganilgan<sup>19</sup>, vatanimizda bu masalaga faqatgina mustaqillik yillarida alohida e'tibor qaratila boshlangan.

Ma'lumki, ilm-fan chuqur tadqiqotlar va unga erishish metodlarini qamrab oluvchi faoliyat turi bo'lib, turli g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalarni ochishga qaratilgan bilimlar majmuasi, alohida olimlar va olimlar uyushma va tashkilotlari tomonidan olib boriladigan mashaqqatli mehnat faoliyatidir. Ilm-fan – inson va uning tafakkuri, tabiat, texnika, hayvonot olamining qonuniyatlarini qamrab oladi. Eng muhimi, u jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Mamlakatning ilmiy salohiyati tizimidagi asosiy tushunchalardan biri ilmiy hamjamiyat tushunchasi bo'lib, u o'zida ilm-fanning tarkibiy tuzilmalaridan birini aks ettiradi. Ilmiy hamjamiyatlarning uchta guruhini farqlash mumkin:

1. Markazlashgan xo'jalik yuritish sharoitlarida deyarli barcha fundamental yo'nalishlar taraqqiyotini ta'minlab bergan akademik fan;

---

<sup>19</sup> Ярошевский М. Г. Логика развития науки и научная школа // Школы в науке. – М., 1977. – С. 86; Грезнева О. Научные школы: принципы классификации // Высшее образование в России. 2004. №5. С. 42-43; Логинова Н. А. Феномен ученичества: приобщение к научной школе // Психологический журнал. 2000. № 5. Т. 21. С. 106–111; Аронов Д. К проблеме определения понятий «научная (научно-педагогическая) школа» // Alma mater (Вестник высшей школы). 2003. -№6. – С.8-13; Грезнева О.Ю. Научные школы (педагогический аспект). Научное издание. Изд-во Московского гуманитарного университета, 2003. – С. 69; Гузевич Д.Ю. Научная школа как форма деятельности // Вопросы истории естествознания и техники. 2003. -№1. – С.64-93; Зербино Д.Д. Научная школа как феномен. Киев: Наукова думка, 1994. – С. 134; О научных исследованиях и научных школах. Евразийское пространство. Сборник научных статей. – М.: Изд-во МГУ им. М.В.Ломоносова, 2010. – С. 56; Поляков С.Д. Научные школы в педагогике: особенности и этапы развития // Вестник Российского гуманитарного научного фонда. М., 2002. -№4. – С.151-157; Amabile T.M. The social psychology of creativity. New York: Springer Verlag Incorporated, 1983. – 245 p.; Cattell R.B. The personality and other motivation of the researcher from measurements of contemporaries and from biography. Scientific creativity. -London, 1963. P. 119-131; Galton F. English men of science: their nature and nurture. London, 1874. -234 p.; Hanson N.R. Patterns of Discovery: An Inquiry into the Conceptual Foundations of Science. Cambridge: Cambridge University Press, 1958. – 252 p.; Kitcher Ph.S. The Advancement of Science. Science without Legend. Objectivity without Illusions. Oxford: Oxford University Press, 1993. – 242 p.; Laudan L. A Problem Solving Approach to Scientific Progress // Scientific Revolutions. Hacking I. (ed.) Oxford: Oxford University Press, 1993. – P. 144-155; Laudan L. Science and values: The aims of science and their role in scientific debate. Berkeley: University of California Press, 1984. – 145 p.; Long J.S. Productivity and academic position in the scientific career // American Sociological Review. New York, 1978. – Vol.43. – №6. – P.889-908 ва бошқалар.

2. Mamlakatni yuksak taraqqiy etishini ta'minlagan tarmoq fani;
3. Kadrlar tayyorlovchi va shu bilan birgalikda akademik va tarmoq fanini rivojlantirishga hissa qo'shuvchi universitet fani.

Ilm-fan istiqbollari hamma vaqt etakchi ilmiy maktablar taraqqiy ettirilishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. SHu ma'noda yurtboshimiz I.A.Karimov "O'rta asrlar SHarq allomalari va mutaffakirlarinung tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyasining ochilish marosimidagi "Ma'lumki, o'sha davrlarning an'alariga ko'ra, ma'rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida panohtopganlar. Ular orasida IX-XI asrlarda Xivada tashkil topgan Ma'mun akademiyasi va "Bayt ul-hikma", yani "Donishmandlik uyi" degan shuhrat qozongan Bag'dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoda dong taratgan"<sup>20</sup>, – degan nutqini keltirish joiz. Bu hol, ayniqsa, jahon fanining barcha sohalari o'zining yuksak natijalariga erishayotgan XXI asrga ham xosdir. Har qanday ilmiy muammolar olimlarning o'zaro hamkorligini, tadqiqotchilar jamoasining shakllantirilishini talab etadi.

Bunday sharoitlarda ilmiy maktablarning ahamiyati favqulodda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ilmiy maktablarning tarkib topishi respublikamiz ilmidagi o'ziga xos an'analarni o'zida mujassamlashtiradi.

SHuni ta'kidlashni lozim topar edikki, aksariyat davlatlarda ilmiy maktablar davlatning tashkiliy tuzilmalari bilan bog'langan bo'lsa-da, u davlatning bevosita tuzilmasi sifatida shakllanmaydi, balki u ilmiy jamotchilikning e'tirofi, boshqacha aytganda, u muayyan yo'nalishdagi olimlarning norasmiy jamiyatidir.

---

<sup>20</sup> Karimov I. A. "O'rta asrlar SHarq allomalari va mutaffakirlarinung tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojilagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyasining ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014. – B.8.

Aynan olimlar ishlarini bir oqimga yo'naltirishi va mujassamlashtirishi ma'nosida ilmiy maktablar alohida qiziqish uyg'otadi. Ilmiy maktablar muayyan yo'nalishdagi ilmiy faoliyat majmuasi, ularning o'zaro birligi va o'zaro boyitish tamoyili asosida ish ko'ruvchi ijtimoiy uyushma sanaladi.

Ilmiy maktab tushunchasi ko'pqirrali bo'lib, o'zining turlicha talqin va ta'riflariga ega. Ilmiy maktab ilmiy hamjamiyatning turlaridan biri, ilmiy faoliyat mujassamlashuvining alohida shakli sifatida qaraladi.

M.G.YAroshevskiyning ta'kidlashicha, "Maktab atamasi qanchalik umumlashgan bo'lishiga qaramasdan, tarixchilar o'rtasida umum qabul qilingan e'tirofga ko'ra, birinchidan, ijodkorlikka o'rgatish va tadqiqotchilik jarayonlarining o'zaro birligini, ikkinchidan, bir guruh olimlar ilmiy pozitsiyasining boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishini anglatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy maktab katta avloddan o'zidan keyingi avlodlarga ilm bilan birga madaniy-axloqiy qadriyatlarni samarali uzatib turadi va u ilm-fan, ta'lim, ustoz-shogird tizimining o'zaro uzviyligini ifodalovchi modelini namoyon etadi.

Ilmiy maktab olimlarning o'zaro ijodiy, doimiy, norasmiy muloqoti, g'oyalar bilan o'rtoqlashishi va natijalar muhokamasining tashkiliy shaklidir. Har qanday ilmiy maktab fan sohasida yangicha qarashlarni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Ilmiy maktablarga tashabbuskorlik, mustaqillik, rivojlanish uchun ichki rag'batning mavjudligi, maqsadga intiluvchanlik, barqaror g'oyaviy qarashlar, erishgan natijalardan qanoatlanmaslik kabi sifatlar xosdir.

Ilmiy maktablarda o'z ilmiy tadqiqoti ishini anglashi, jamoa a'zolarining undagi o'rni va ishtiroki, har bir tadqiqotchining umumiy ilmiy faoliyatga hamohang ish olib borishi muhim ahamiyatga ega.

YUzaga kelish jarayonlari tahlili ilmiy maktablarning shakllarini quyidagicha tasniflash imkonini beradi:

1) bo‘lajak tadqiqotchilarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-ta’limiy maktab;

2) ilmiy maktab etakchisi rahbarligida tanlangan yoki yaratilgan tadqiqotchilik dasturini birgalikda amalga oshiruvchi olimlar guruhi – tadqiqotchilar jamoasi;

3) olimlar guruhi va tadqiqotchilar jamoasi tomonidan tarkib toptirilgan muayyan qarashlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq fandagi yangi yo‘nalish;

4) taniqli olim rahbarligida dissertatsiya himoya qilib, fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lgan tadqiqotchilar.

M.G.YAroshevskiy ilmiy maktablarning tipologik shakllari sifatida: ilmiy-ta’limiy maktab, maktab tadqiqotchilar jamoasi, muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda milliy va xalqaro ahamiyat kasb etuvchi ilmiy yo‘nalishlarni alohida qayd etadi.

“Ilmiy maktab” tushunchasi ko‘pqirrali bo‘lib, tahlillar ushbu kategoriyaning asosan 3 ta talqini keng e’tirof etilganligini ko‘rsatmoqda:

– rasmiy birlashma, turli darajadagi ilmiy-ta’limiy tuzilma (universitet, fakultet, kafedra, ilmiy-tadqiqot muassasasi, ilmiy laboratoriya);

– universitet yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining tarkibiy tuzilmasiga kirmagan tadqiqotchilik jamoasi;

– tadqiqotchilar guruhining qiziqishlarini mujassamlashtiruvchi fandagi yo‘nalish;

O. Grezneva ilmiy maktabning quyidagi tasnifini taklif qilgan:

1. Ilmiy maktab vakillari o‘rtasidagi aloqalarning turiga ko‘ra: ilmiy oqim, ilmiy guruh, ko‘z ilg‘amas muassasa;

2. Ilmiy g‘oya statusiga ko‘ra: eksperimental, nazariy;

3. Tadqiq qilinayotgan fan sohasi qamroviga ko‘ra: tor sohada, keng qamrovli;

4. Yaratilayotgan bilimlarning funksional yo‘nalishiga ko‘ra: fundamental, amaliy;

5. O‘quvchilar faoliyatini tashkil qilish shakliga ko‘ra: ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishning individual yoki jamoaviy shakliga asoslangan;
6. Avlodlar o‘rtasidagi aloqa tavsifiga ko‘ra: bir sathli, ko‘p sathli;
7. Institutlari shakliga ko‘ra: norasmiy, to‘garaklar, institual;
8. Lokatsiya darajasiga ko‘ra: milliy, lokal, shaxsiy<sup>21</sup>.

Ko‘pchilik OTMlarning Internetdagi saytlarida “ilmiy maktab” atamasida ko‘proq ilmiy yo‘nalish nazarda tutilsa, muayyan holatlardagina o‘z tarkib topish, rivojlanish tarixiga va bugungi davrdagi mavqeiga ega ilmiy jamoa nazarda tutiladi. Odatda bu jamoalar muayyan ilmiy yo‘nalish ichida “etakchi ilmiy jamoa” mavqeiga da‘vogarlikka intiladi. Boshqacha aytganda, amalda “ilmiy yo‘nalish – ilmiy maktab” tizimi mavjud.

SHu bilan birga, olimlar ilmiy maktabni alohida tadqiqotchilik va, muhimi, insoniy sifatlarga ega, yangi g‘oyalar yaratuvchi etakchi olim atrofida birlashgan tadqiqotchilar hamjamiyati sifatida talqin qiladilar. Bunday olim atrofida uning ilmiy g‘oya va umumiy nazariy qarashlarida, metodologik qarashlarida hamfikir bo‘lgan safdoshlar va shogirdlar birlashadi. Bunda tadqiqotchilarning barchasi ushbu olim tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etilgan tadqiqot dasturini birgalikda bajaradi. Ilmiy jamoa tomonidan ilmiy dasturni bajarish davomida olingan natijalar va yuzaga keladigan mulohazalar borasida muttasil muloqot qilib boriladi. Aksincha, o‘zaro raqobatlashuvchi ilmiy jamoalarda bu holat kuzatilmaydi. Ilmiy jamoada o‘zaro muloqotning yo‘lga qo‘yilganligi, uning muntazamligi ilmiy maktab mavjud bo‘lishining zaruriy sharti sanaladi. Demak, muayyan ilmiy masalani hal qilishda olimlar o‘zaro ilmiy axborotlar almashinuvi jarayonida o‘z salohiyat va ilmiy malakalarini oshirishga ham erishadilar.

Bunday maktablarning muhim funksiyasi ilm sohasidagi o‘rinbosarlar – yosh tadqiqotchilar avlodini tayyorlash, ularning ilmiy darajada va ilmiy

---

<sup>21</sup> Грезнева О. Научные школы (педагогический аспект). – М.:РАО, 2003. – С. 42-43

unvonlarga ega bo'lish jarayonida ilmiy maktablar taraqqiy ettiriladi va uyg'unlantiriladi. Etakchi olimlar endigina fanga kirib kelayotgan yoshlardan ham ilmiy, ham dunyoqarash borasidagi hamfikrlarni etishtirishga intiladilar.

Yirik ilmiy maktablarning shakllanishi uzoq kechadigan mashaqqatli jarayondir. Oliy ta'lim muassasasi sharoitida bu masalaning echimi jamoaning ham ta'limiy, ham ilmiy vazifalarni o'zaro mujassam holatda echishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Ijodiy muhitning yaratilishi, talaba va ilmiy izlanuvchilar orasidan tanlanadigan iqtidorli shogirdlar bilan ishlash, o'quv-yordamchi va ilmiy bazaning mavjudligi etakchi olimlarga universitet muhitida yuqori ahamiyatga ega ilmiy natijalarga erishish uchun zarur asoslarni beradi. SHu ma'noda ilmiy maktabni etakchi olim rahbarligida belgilangan ilmiy dasturni amalga oshiruvchi turli toifadagi olimlarning intellektual, ruhiy-qadriyatli, norasmiy, ochiq jamoasi de yuritish mumkin bo'ladi. Bunday ilmiy maktablarning eng ahamiyatli jihati ularda quyidagi vaziflarning hal qilishga qaratilganligi bilan izohlanadi: ilmiy g'oyalarni yaratish va himoya qilish, yoqlash, alohida olimlar tomonidan hal etilishi murakkab bo'lgan yirik ilmiy masalalarning jamoa tomonidan majmuaviy echimini ishlab chiqilishiga erishish, yosh olimlarni tayyorlash.

SHuningdek, ilmiy maktabga aynan olingan ilmiy yo'nalishda yuqori darajadagi tadqiqotlar bilan tanilgan, barqaror obro' va an'analarga, tayyorlangan yuqori malakali tadqiqotchilar avlodi almashinuvidagi uzviylikka ega ilmiy jamoa deb qarash ham o'z asosiga ega.

Ilmiy maktab rivojlanib borishidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab beruvchi etakchining, jamoani yagona g'oya atrofida birlashtiradigan tadqiqotchilik dasturining mavjudligi, birgalikda faoliyat yuritishiga zamin yaratuvchi yagona yondoshuv yoki paradigmaga ega bo'lishi xususiyatiga ega. SHuningdek, ilmiy maktabning belgilari sifatida maktab jamoasining bevosita o'zaro muloqotda bo'lishi, etakchi tomonidan ishlab chiqilgan dastur, unga mos

metodik tuzilma hamda faoliyat natijalarini baholashda ichki standartlarning mavjud bo'lishini qayd etish mumkin.

Ilmiy maktablarning mavjud bo'lishdagi rasmiy shartlar qatorida quyidagilar qayd etilishi mumkin:

- ilmiy maktab etakchisi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilgan, yorqin etakchiga ega bo'lishi;
- sohada qabul qilingan va amalda bo'lgan mavjud yondoshuvlardan farq qiluvchi, o'ziga xos yondoshuvga egalik qilishi;
- soha faniga bo'lgan qiziqishning maqolalar, seminarlar va konfenretsiyalar asosida doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab turilishi.

Ilmiy maktabning yaralishiga etakchida nafaqat ilmiy faoliyat uchun zarur bo'lgan sifatlar, balki ijodiy jamoani o'z atrofida jipslashtira olish qobiliyati ham o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi. Etakchi bir qancha funksional pozitsiyalarni egallaydi. Birinchidan, u maktabning "loyihachi-tashkilotchisi" hisoblanadi. Bu esa jamoa a'zolarining o'z faoliyatiga tashqaridan baho bera olishiga hizmat qiladi. Ikkinchidan, etakchi bir vaqtning o'zida ikki jihatdan, ya'ni ham ustoz, ham hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy maktabning ahamiyatligi unda bir vaqtning o'zida ilmiy g'oyalar tashabbuskori, ularning targ'ibotchi va ommalashtiruvchisi, ilmiy darajadar himoyasi asosida yosh olimlar tayyorlash funksiyalarini bajarishi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, ilmiy maktabning asosiy tavsifi uning ilmiy jamoatchilik o'rtasida tanilganligi, yuqori saviyadagi, o'ziga xos tadqiqot yo'nalishiga ega bo'lishi, ilmiy obro'ga, o'z ilmiy an'analariga ega bo'lishi va avlodlar uzviyligining ta'minlanganligidir. Ilmiy maktab bilimlarni yaratish (tadqiqotchilik), ularni ommalashtirish (muloqot), ilmiy hamjamiyat saflariga munosib olimlarni etishtirib berish funksiyalarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ilmiy maktablarni tan olinishi nuqtai nazardan Markaziy Osiyo misolida quyidagi tiplarga ajratish imkoni ham bor:



- dunyo sivilizatsiyasida tan olingan ilmiy maktablar. Bunga Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa allomalar asos solgan maktablar taalluqlidir;

- mamlakatimizda tan olingan ilmiy maktablar. Bunga T.N.Qori Niyoziy, YO. To‘raqulov, Ibrohim Mo‘minov, YA. G‘ulomov, P. Habibullaev, Siddiq Rajabov, SHavkat Olimov, N. M. Mallauv, YUNus Rajabiy kabi olimlar maktablari kiradi;

- muayyan oliy ta‘lim muassasasida e‘tirof etiladigan ilmiy maktablar. Toshkent davlat pedagogika universitetida 2014 yilda o‘z ilmiy maktabi mavjudligi haqida ma‘lum qilgan 33 ta ilmiy jamoa mavjud edi. Ulardan 11 tasi kafedralar, kafedralararo uyushma – 1, fakultetlararo uyushma – 1, OTM ta‘limiy uyushma – 6; boshqa uyushmalar – 15. Boshqa uyushmalar deganda kafedralar va ilmiy loyihalar bo‘yicha ijodiy jamoalar, ilmiy laboratoriyalar, mutaxassislar va olimlarning jamoatchilik birlashmalari nazarda tutiladi. Ularni yana “Tan olingan ilmiy maktablar”, “Taniqli ilmiy maktablar”, “Rivojlanib kelayotgan ilmiy maktablar”, “SHakllanayotgan ilmiy maktablar” dan iborat darajalarga ajratish mumkin.

Ilmiy maktablar qanday tashkiliy shaklni tanlamasin, ularning taraqqiy etish va tarkib topish bosqichidan qat‘iy nazar, ular faqatgina ma‘muriyatning doimiy e‘tibori, qo‘llab-quvvatlashi, kerak bo‘lsa, zarur hollarda moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi asosidagina mavjud bo‘lishi, faoliyat yuritishi mumkin.

Ilmiy maktablar mohiyatga ko‘ra, jamoani ishida aks ettiradi, biroq fanda ular maktabning asoschisi bo‘lgan olim nomi bilan yuritiladi. Ilmiy maktab deganda bir olim tomonidan tayyorlangan olimlarni nazarda tutish ham to‘g‘ri bo‘ladi. Bunda haqqoniy ravishda “u falonchi olimning maktabini o‘tagan” deb yuritiladi.

Ilm-fan nazariyasida “ilmiy maktab”, “ilmiy yo‘nalish” va “ilmiy muammo” atamallari farqlanadi. Qayd etish joizki, ilmiy maktab to‘g‘risida so‘z yuritilganda, uning doirasida bir qancha fan doktorlari tayyorlanganligi nazarda tutiladi. Ilmiy maktabning muhim tavsifi aniq ilmiy muammo echimi ustida ish olib borilayotganligi, dissertatsion tadqiqotlar borasida ilmiy izlanuvchilar bilan ishlanayotganligi, aniq mavzudagi ilmiy konferensiyalar tashkil qilib borilayotganligi e‘tiborga olinadi. Kafedraning ilmiy yo‘nalishi to‘g‘risida so‘z yuritilganda bu bo‘linmaning rahbari fan doktori ekanligi, kafedra ilmiy yo‘nalishi doirasidagi tadqiqotlar dissertatsiya ishlarini himoya qilish, loyihalar bajarish va yirik ilmiy ishlarni nashr qilish bilan yakunlanayotganligini anglatadi. Ilmiy maktab faoliyatiga baho berishda himoya qilingan dissertatsiya ishlari, maktab a‘zolarining ilmiy ishlariga iqtiboslar berilishi, maktab a‘zolari amal qiladigan umumiy g‘oya va qadriyatlarning mavjud bo‘lishi e‘tiborga olinadi. Ilmiy maktab faoliyatining uzviyligi, tadqiqotlarning davomiyligi odatda u maktab etakchisi tomonidan asos solingan ilmiy mavzuning shogirdlar ilmiy ishlarida davom ettirilishi, rivojlantirilishi, yangi qirralar bilan boyib borishi orqali tavsiflanadi.

Ilmiy maktabning muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning a‘zolari tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqotlarning ko‘pqirraliligi hisoblanadi. Ilmiy maktabning boshqalardan ajralib turadigan o‘ziga xos jihatlarini belgilashda miqdor ko‘rsatkichlardan foydalanish faqatgina umumiy xulosa chiqarishga imkon beradi. SHu sababli ilmiy maktab bilan bog‘liq jihatlarini, uning o‘ziga xosligini baholashga keng qamrovli yondoshuv talab etiladi.

Ilmiy maktablar fanning, olimlarning to‘laqonli faoliyat yuritishidagi ehtiyoji bo‘lib, ilmiy hamjamiyat bu kabi muhit negizidagi doimiy muloqotga, axborotlar almashinuviga, o‘zaro munosabat va natijalarining baholanishiga intiladi. Ilm-fanning rivojlanib borishidagi tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy hamjamiyatning barqarorligi uning: muayyan darajadagi mustaqilligi, o‘z

faoliyatini mustaqil yo'lga qo'ya olishi, fanning kelajagini belgilab berishda muhim kuch bo'lgan yosh olimlarning tashkilotchiligi va intiluvchanligi, tajriba va an'analarni o'zida mujassam qilgan katta avlod olimlari bilan muntazam muloqotning yo'lga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Fanda mavjud bo'lgan "ilmiy hamjamiyat" atamasi ilmiy maktablar shakllanishidagi o'zak tushuncha bo'lib, u odatda bir sohaga tegishli, bitta yo'nalishda ish olib boruvchi, umumiy qarashlarga ega olimlar uyushmasini anglatadi. SHu bilan birgalikda, ilmiy maktab ilmiy hamjamiyat sifatida turli soha vakillari bo'lgan, lekin bitta umumiy ilmiy muammo echimi ustida ishlayotgan olimlarni ham o'zida jamlashi mumkin. Bunday yondoshuv umumuniversitet va kafedralararo ilmiy maktablarning yaralishiga olib keladi.

Ilmiy maktablarning tarbiyaviy ahamiyatini alohida qayd etish lozim. Muassasada tarkib topgan muhit, uning jamoasi tarbiyaviy va axloqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega bo'ladi va bu ilmiy maktab o'sha jamoaning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ilmiy maktablar ravnaqiga katta e'tibor qaratilmoqda. Har yili Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish markazi tomonidan grantlar e'lon qilib boriladi. Amalda barcha ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy maktablar mavjud. Internet tarmog'i orqali tanishib chiqilgan ko'plab ta'lim va ilmiy muassasalar faoliyatiga doir materiallar turli shakldagi ilmiy maktablar fandagi umumiy bir evolyusion taraqqiyotning uzviy bo'g'inlari sifatida jamoatchilik uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Bu o'rinda masalaning mohiyati muayyan muassasa, jumladan bizning universitetimizning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda ularning qaysi biri ko'proq samara berishini ravshanlashtirib olish lozim bo'ladi. Ilmiy izlanuvchi o'z ilmiy yo'lining avvalida ilmiy maktabga birlashishi, undagi o'z tadqiqot mavzusini aniqlashi va tasdiqlatishi, maktab olimlari bilan o'zaro muvofiq ravishda olib borishi kerak. Tadqiqotchi o'z

izlanishlari bilan ilmiy maktab faoliyatiga hissa qo‘shadi va bir vaqtning o‘zida u ilmiy maktab salohiyatini tanlangan ilmiy sohada e’tirof etiladigan mutaxassis va ekspert sifatida tan olinishi uchun xizmat qiladi.

### **I bob bo‘yicha xulosa**

I bob bo‘yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish negizida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini mustaxkamlash, hamda uning keltirib chiqarayotgan oqibatlaridan inson va jamiyat manfaatlariga mos keladigan to‘g‘ri yo‘nalish kasb etishi kerak;

- hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti yo‘nalishlari va tendensiyalarini, ularning jamiyatdagi roli va funksiyalarini kompleks va chuqur o‘rganish;

- bugungi ilmiy-texnika taraqqiyotida qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolarini hal etish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash;

- bugungi kunda ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotida ilmiy maktablarning ahamiyati va o‘rnini hisobga olish va h.k.

## **II BOB. IJTIMOIIY VA ILMIIY-TEXNIK TARAQQIIYOT – MA’NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASH NEGIZI.**

### **2.1 Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida ilm-fan va ma’naviy ishlab chiqarishning roli va ahamiyati.**

XXI asrga kelib dunyoning ilmiy falsafiy manzarasining o‘zgarishiga: birinchidan, ilm-fanning tez sur’atlar bilan rivojlanib koinotda, tabiatda yuz berayotgan hodisalarning yangicha mazmundagi sir-asrorlarini ochayotganligi; ikkinchidan, ilm va texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan texnologiyalarning tezlikda ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq etilayotganligi; uchunchidan, inson bioijtimoiy mavjudod sifatida o‘rganilib, uning jismoniy va ma’naviy vujudini uyg‘unlashtirish ishlarining optimallashtirilayotganligi; to‘rtinchidan, globallasuv jarayonlarining tashuvchisi bo‘lgan axborot texnologiyalarining chegara bilmas darajada kuchayib borayotganligi va boshqalar olib keldi. Natijada, insonning moddiy va ma’naviy ne‘matlarni ishlab chiqarish borasidagi tushunchalari ham tubdan o‘zgara boshladi. Buni o‘zbek xalqiniig o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng ijtimoiy taraqqiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarda ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, ijtimoiy taraqqiyotni ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarisiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Bugungi kunda mazkur masalani falsafiy jihatdan tadqiq qilish uchun quyidagi: ma’naviy ishlab chiqarish ijtimoiy falsafaning kategoriyasi sifatida o‘zida qanday nazariy imkoniyatlarni mujassamlashtiradi; uning ijtimoiy ong, ma’naviy faoliyat, ma’naviy xayot kabi tushunchalarga bo‘lgan nisbati nimalarda ifodalanadi; ma’naviy ishlab chiqarish tushunchasi fuqarolik jamiyatining ko‘p qirrali hayotini aks ettirishda o‘z istiqboliga ega bo‘la oladimi, degan bir qator umumiy savollar ustida bosh qotirishga tug‘ri keladi.

Har qanday jamiyatning hayot faoliyatini falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, uning asosan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlaridan tashkil topganligini ko‘ramiz. Bu esa jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini ana shu jarayonlarning qanday kechishiga qarab o‘rganishni, ularni ijobiy tomonga yo‘naltirishning taktika va strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bu imkoniyat esa moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini nisbatan mustaqil tarzda alohida, alohida o‘rganishni, so‘ngra esa ularni dialektik tarzda uyg‘unlashtirish ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Jamiyatning ma’naviy hayotini taraqqiy toptirishni yuksak ma’naviyatli shaxs – komil insonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu xususan I.A.Karimov: “Ma’naviyat – uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his – tuyg‘u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o‘laroq ma’naviyat ham doimo o‘zgarish va yangilanishda bo‘ladi. Ma’naviyat deganda avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasina baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan kuchni tasavvur qilaman”<sup>22</sup>, – degan edi. Bu ma’naviy ishlab chiqarish masalasini o‘rganishda metodologik ahamiyat kasb etadigan falsafiy fikr bo‘lib, u jamiyatimiz ravnaqi uchun kerakli bo‘lgan yuksak ma’naviyatli shaxs – komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazish faqat ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, ma’naviy ishlab chiqarishni tashkil etishdan maqsad bu jamiyatning dunyoviy bilimlar asoslarini puxta egallagan, diniy bilimlarning tub mohiyatini anglab etgan, biron bir foydali kasb – hunar sohibi bo‘lgan, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, jismonan sog‘lom shaxs – komil insonlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Uning kelgusida amalga oshirilishi esa ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining

---

<sup>22</sup> Каримов И.А. Ўз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз//Унинг ўзи. Биз келажакимизни ўз кўлимизни билан қураимиз. Т.7.: Ўзбекистон, 1999.-Б.302-303.

hosilasi bo'lgan komil insonlarning sa'i-harakatlari orqali fuqarolik jamiyati ma'naviyatini shakllantirish va ravojlantirish mumkinligini bildiradi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, ma'naviy ishlab chiqarish tushunchasi jamiyatda sodir bo'ladigan ijtimoiy taraqqiyotning tub mohiyatini hamda kelgusida bunyod etiladigan fuqarolik jamiyatining ko'p qirrali ma'naviy hayotining amal qilish mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan ifodalash imkoniyatlariga ega bo'lgan istiqbolli falsafay kategoriyalar jumlasiga kiradi.

Falsafa ilmida "ma'naviy ishlab chiqarish" tushunchasini falsafiy kategoriya sifatida iste'molga kiritish: bir tomondan, terminologik; ikkinchi tomondan esa metodologik masalalarni hal qilishni talab qiladi.

Masalaning, birinchi terminologik tomoni – ong, ruh, psixika, tafakkur, ruxiyat, ma'naviy hayot, ma'naviy madaniyat, tushunchalarining lug'uviy ma'nosini tahlil qilish, taqqoslash orqali "ma'naviy ishlab chiqarish" tushunchasini falsafiy kategoriya sifatida iste'molga kiritish nazarda tutiladi.

Ma'lumki, ko'pgina falsafiy adabiyotlarda "ong", "tafakkur", "ruh", "psixika" va shunga o'xshash tushunchalar tahlil qilinmasdan sinonim so'zlar sifatida ishlatilaveradi. Biroq, bu borada ularning o'rtasida terminologik jihatdan o'xshash va farq qiluvchi tomonlar borligini ham unitmasligimiz kerak. "Zamon ruhi", "ma'naviy ishlab chiqarish", "ma'naviy madaniyat", "ma'naviy hayot". Demak, ular qanchalik ontologik va gnesologik xususiyatlarga ega bo'lmasin, baribir ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining elementlari sifatida zohir bo'ladilar. Bu esa ma'naviy ishlab chiqarish tushunchasini terminologik jihatdan falsafiy iste'molga kiritishni isbotlaydi.

Masalaning, ikkinchi metodologik tomoni – ijtimoiy ong va ijtimoiy borliq o'rtasidagi o'zaro nisbatning amal qilish mexanizmini topish masalasiga qaratilgan bo'lib, uni "ma'naviy ishlab chiqarish" tushunchasini metodologik asos sifatida iste'molga kiritishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning in'ikosi. Biroq, bu jarayonlarning kechish mexanizmlarni nimalar tashkil etadi degan savol tug'iladi. Bunga "ma'naviy ishlab chiqarish" tushunchasini metodologiya sifatida iste'molga kiritish orqali erishish mumkin.

"Ma'naviy ishlab chiqarish" tushunchasining genezisi va evolyusiyasini kuzatadigan bo'lsak, rossiyalik olimlar mazkur termenni rus iqtisodchisi va tarixchisi Andrey (Anri) SHtorx tomonidan 1815 yilda bo'lg'usi imperator Nikolay 1 ga siyosiy iqtisod fanidan o'qigan ma'ruzalarida ishlatgan. Keyinchalik bu masalani K.Marks va uning izdoshlari materialistik nuqtai nazaridan sinfiylik tamoyillari asosida yoritishga harakat qilganlar. Undan keyin esa, vaqtlar o'zgarishi bilan ma'naviy ishlab chiqarish deganda ma'naviy qadriyatlar, ya'ni g'oya, tasavvur, ilmiy bilim, ideallarni, shuningdek, ijtimoiy ongning aniq tarixiy shakllari bo'lmish siyosat, huquq, din, san'at, axloq kabilarni ishlab chiqarishni tushuntirishga harakat qilganlar.

YUrtboshimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqarilgan ijtimoiy taraqqiyotning "o'zbek modeli" tamoyillari, asosida rivojlanib borayotgan o'zbek xalqi, o'zining milliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda ma'naviy ishlab chiqarish masalasini yangicha tarzda tashkil etishga kirishdilar. O'zbek xalqining ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlari: 1) ilmiy tadqiqod va ishlanmalarni; 2) ta'lim tizimini; 3) ommaviy aloqa vositalarini; 4) axborot texnika va texnologiyalarini; 5) san'at va madaniyat; 6) sport va boshqalarni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. SHunga ko'ra ma'naviy ishlab chiqarishni keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin.

Ma'naviy ishlab chiqarish bu tor ma'noda jamiyat a'zolarining ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish ishlarini ta'minlashga qaratilgan faoliyatlarini harakatga keltiruvchi mexanizmlar tizimidir. Bu mexanizm maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan alohida kishilar (olimlar, o'qituvchilar, murabbiylar, yozuvchilar, shoirlar, me'morlar, haykaltaroshlar,



rassomlar, kinorejissorlar va boshqalar) hamda xalq ommasining talantli vakillari (xalq baxshilari, xalq tabobati vakillari) tomonidan ishga tushiriladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish keng ma'noda, ya'ni unga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Ma'naviy ishlab chiqarish deb insonning tabiat va jamiyat doirasi o'z naslini davom ettirish, uning barkamolligini ta'minlash, oqilona samarali mehnat va ijod qilish ishlarini tashkillashtirish, axloqiylik sifatleri va estetik zavqini kuchaytirish borasida ma'naviy hayot ne'matlarini hosil qilish, ularni taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlariga aytiladi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar siyosati faqat moddiy ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga emas, balki ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini ham rivojlantirishga, ularning har ikkalasini uyg'unlashtirish asosida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etishga qaratilgandir. Bunga YUrtboshimiz I.A.Karimovning: "Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz. Siyosatimizni shunga quramiz va uni to'la tatbiq, etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo'lsinlar. Ma'naviyat va iqtisod bir –birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo'li mana shu"<sup>23</sup>, – degan fikrlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari birinchidan, sog'lom nasl, sog'lom avlodni hosil qilish ishlarining izchil yo'lga qo'yilganligi; ikkinchidan, dunyoga kelgan sog'lom naslni barkamol etib tarbiyalash uchun

---

<sup>23</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари//унинг ўзи. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.32.

ularga dunyoviy bilimlarning sir – asrorlarni o‘rganish ishlarining ta’lim muassasalarini tashkil etish orqali amalga oshirilayotganligi; uchinchidan, kuchli ijtimoiy himoya yuritish asosida barcha kam ta’minlangan oilalar, nogironlar va keksalarning munosib turmush kechirishlari uchun shart – sharoitlar yaratib berilayotganligi; to‘rtinchidan, zamonaviy bilim cho‘qqilarini egallash uchun zarur bo‘lgan axborot va kommunikatsion vositalar bilan ta’minlash ishlarining muntazam ravishda amalga oshirilayotganligi, xullas, ma’naviy ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish uchun davlat byudjetining 60% mablag‘i sarflanayotganligi bilan ifodalanadi.

YUkorida bayon qilingan barcha fikrlar hali o‘zbek xalqining mustaqillik yillarida ma’naviy ishlab chikarish borasida amalga oshirgan ishlari falsafiy jihatdan o‘rganilmaganligini, uning o‘ziga xos bo‘lgan rivojlanish konuniyatlari ochiq berilmaganligini ko‘rsatadi.

## **2.2 Ilmiy-texnik taraqqiyotda axborot texnologiyalarining yoshlar ma’naviy ongidagi o‘rni.**

XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida axborot texnologiyalari va integratsiyalashuv davri sifatida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bu davr o‘zining jilokorligi, shiddatkorligi, tezkorligi, har qanday ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini tezda ommalashtirishi hamda keng jamoatchilik fikrida tezkor sur’atlarda shakllanib borishi bilan boshqa barcha asrlardan tubdan farq qilmoqda.

Bugun dunyoda axborot telekommunikatsiyalari hamda axborot oqimlari haddan tashqari jadal va keng ko‘lamda rivojlanib bormoqda. Bu jarayon ba’zi bir davlatlarning axborot bozoridagi hukmronligini oshish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Masalan, oxirgi ellik yil ichida jamiyatda aylanadigan axborot hajmi million marta ko‘paydi va kundan kunga yanada oshib bormoqda. Bu shunday bir katta raqamki, uni to‘la darajada anglab olish

qiyin<sup>24</sup>. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, bunday imkoniyatlar hamma davlatlarda ham mavjud bo'lmagan. SHu sabab, axborot asri deb e'tirof etilayotgan XXI asrga kelib jamoatchilik fikriga dezinformatsion ta'sir etish omillari kuchayib bormoqda.

Dezinformatsiya (fran, des - "salbiy" va information - "axborot") muayyan guruh va doiralarning g'arazli maqsadlariga erishish yo'lida soxta ma'lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalg'itish maqsadida matbuot, radio va TVda qo'llanadigan usul, vosita bo'lib, dezinformatsiya turlari: a) soxta axborot, ovoza va shov-shuvlar tarqatish; b) konfidensial ma'lumotlar oqib ketishini tashkil qilish; v) muayyan faktlarni bo'rttirib yoritish, ziddiyatli xabarlarini tarqatish<sup>25</sup> kabilarni o'z ichiga oladi. Bu xususda Islom Karimov «...shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin»<sup>26</sup> deb, bu tushuncha bilan bog'liq muammolarning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Demak, texnikaviy jihatdan qudratli bo'lgan davlatlar kuchli axborot texnologiyalariga ega. SHuning evaziga ular o'zlari ishlab chiqqan axborotni tarqatish yo'li bilan boshqa mamlakatlar ustidan oldin g'oyaviy, keyin esa siyosiy, iqtisodiy va madaniy hukmronlik qilish imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Bunday davlatlar sirasiga eng avvalo rivojlangan mamlakatlar kiradi. Mazkur mamlakatlarning axborot manbalari sifatida birinchi o'rinda davlat axborot markazlari va milliy OAV (Ommaviy axborot vositasi) xizmat qiladi.

---

<sup>24</sup> Қаранг: [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

<sup>25</sup> Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати / ЎзР Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти; таҳрир ҳайъати: Х.Султонов ва бошқ.; тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. —Т.: Фафур Ғулом, 2009. — Б.131.

<sup>26</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008. — Б.115.

Dezinformatsiyaning tarixi, avvalo, OAVning paydo bo'lishi va shakllanishi bilan uzviy bog'liq, uning mazmun-mohiyati asosan siyosiy, g'arazli maqsadlarni ko'zlagan intilishlarda namoyon bo'ladi.

Axborot tarqatadigan mamlakatlarning mafkurasini boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida keng tarqatish va targ'ib qilish bu usulning ommalashgan turlaridan hisoblanadi. Lekin bunday harakatlar haqida ular ochiq oydin aytmaydi, aksincha, uni har xil yo'llar bilan yashiradi. Masalan, inson huquqlari yoki demokratik andozalar niqobi ostida.

Axborot tarqatishning asosiy ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi, pozitivlik asosida, ikkinchisi negativlik asosida shakllangan axborotdir. Bu axborot turlarining namoyon bo'lish shakllariga ko'ra bugungi kunda negativ axborot turi keng tarqalayotgan bo'lib, bu tur ko'proq "axborot urushi" nomi bilan mashhur bo'lib bormoqda.

Axborot urushi (ingl, information war; information – "axborot", war – "urush" ) – o'zga davlat tinch aholisi va (yoki) harbiylariga muayyan axborot (informatsiya) tarqatish yo'li bilan ta'sir o'tkazish<sup>27</sup> kabi ma'nolarda ham uchraydi.

Aslida, "Axborot urushi deb, ijtimoiy, siyosiy, etnik va boshqa tizimlarning moddiy yutuqqa ega bo'lish maqsadida bir-biriga ochiq va yashirin maqsadli axborot ta'sirlariga aytiladi. SHu bilan bir qatorda axborot urushi raqib ustidan axborot hukmronligiga erishish va shuning evaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar etkazish uchun davlatning xarbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tabdirlar va operatsiyalar majmuasiga aytiladi"<sup>28</sup>.

---

<sup>27</sup> Қаранг: [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

<sup>28</sup> Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. Второе издание. — М.: Горячая линия – Телеком, 2006. — С. 203.

“Axborot urushi” tushunchasining asoschisi fizik-olim Tomas Ron hisoblanadi, 1976 yilda u axborotni harbiy kuchlarning eng zaif bug‘ini deb ta’riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas’ul kishilarning e’tiborini qaratdi. SHundan beri mazkur so‘zlarning ahamiyati kundan kunga kuchayib kelmoqda.

Axborot urushida oddiy urushda qo‘llanadigan qirg‘in vositalari ishlatilmaydi. Uning ob’ekti – omma yoki alohida shaxslar ongidir. Qarama-qarshi taraflarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladigan shaxslar (prezident, bosh vazir va h.k.) alohida ta’sir ostiga olinishi mumkin.

Axborot urushi vositalari vazifasini ommaviy axborot vositalari, pochta, hatto g‘iybat tarzida tarqatilgan gap-so‘zlar ham bajarishi mumkin. Axborot urushida faktlar buzib ko‘rsatiladi yoki ular ta’sir ko‘rsatayotgan tarafga foydali tomonlari bo‘rttiriladi.

Axborot urushining tarkibiy qismlari:

– psixologik operatsiyalar – dushman askarlari ishonchiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida axborotni qo‘llash;

– elektron urush – dushmanga aniq axborot, ma’lumotga ega bo‘lish imkonini bermaslik;

– dezinformatsiya – dushmanni o‘zining kuchi va niyatlari to‘g‘risida soxta ma’lumot bilan ta’minlash;

– jismoniy vayron qilish – axborot tizimlarining elementlariga ta’sir ko‘rsatish maqsadi paydo bo‘lganda, axborot urushining bir qismi bo‘lib kelishi mumkin;

– xavfsizlik choralari – dushman taraf imkoniyat va niyatlaridan xabardor bo‘lishining oldini olish;

— to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot hujumlari — axborot mohiyatini saqlagan holda uning ko‘rinishini o‘zgartirib yuborish<sup>29</sup>.

Ushbu urushda OAVning o‘rni va roli juda katta. Chunki, har bir OAV auditoriyaga o‘ziga xos ta‘sir etish kuchiga ega. Internetgacha ularning ichida eng samaralisi televidenie edi, chunki u tomoshabinga uch yo‘l bilan axborot etkazadi: tasvir, ovoz va mantiq. Shuning uchun televidenie ommaviy ravishda tarqalganidan keyin besh-o‘n yil ichida besh yuz yillik tarixga ega bo‘lgan matbuotdan uzib ketdi. Radio ham katta kuchga ega, chunki u ikki kanal orqali ta‘sir ko‘rsatadi, ovoz va mantiq. Uning afzalligi — jonli ovoz yordamida auditoriya bilan muloqot qilish, bunday usul axborot manbai bilan tinglovchi o‘rtasidagi masofani yo‘qotadi. Inson ovozi, uni yurakdan chiqishi, undagi hayajon va samimiylik radioning imkoniyatini keskin oshiradi.

Matbuotning o‘quvchi bilan muloqot yo‘li esa asosan mantiqiy isbotdan iborat, bunday ta‘sirga ma‘lum miqdorda tasvir ham qo‘shiladi: gazetadagi rasmlar, rang, sarlavhalar ko‘rinishlari.

Bugungi kunda OAVdan axborot–psixologik urushini olib borish vositasi sifatida foydalanayotgan tashkilotlarning faoliyatiga ham guvoh bo‘lmoqdamiz. Afsuski, ayrim OAVlar bugungi kunda shunday vositaga aylanganlar.

Axborotning eng xavfli vositalaridan biri bu psixologik ta‘sir etish hisoblanadi. Psixologik ta‘sir etish insonning axborotni qabul qilishi bilan bog‘liq: ko‘rish, eshitish, ta‘mini bilish, hidini sezish, qo‘l bilan tegish, fikrlash va h.k. Axborot xavfsizligi masalasiga kelganda psixologik ta‘sir ko‘proq OAV yordamida amalga oshiriladi, shuning uchun ular mutaxassislar tomonidan doimo mukammallashtirilmoqda. Natijada rivojlangan mamlakatlar matbuot, radio va televideniening barcha imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan internetdek yuqori texnologiyaga ega bo‘ldilar.

---

<sup>29</sup> Мафқуравий полигонлар луғати. (Муаллифлар жамоаси). Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. — Т.: Маънавият, 2010. —Б.3.

Internet ommaviy kommunikatsiya ta'sirini eng baland pog'onaga ko'tardi. Saytga joylashtirilgan ma'lumot birdan butun dunyo bo'yicha tarqalib ketadi. Uning adadi (tiraji) esa cheksiz. OAVning roli internetgacha ham kuchli bo'lgan, endi esa ularning ta'siri tasavvur qilib bo'lmaydigan darajaga etdi. OAVdan tashqari internet reklama, ma'lumotlar etkazish, elektron pochta xizmatlarini ham bajaradi. Eng qulayi shundaki, internetdagi ma'lumot juda ko'p, u arzon va o'ta tezkor.

SHu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, axborot qarama-qarshiligining maqsadi – dunyoviy (global) axborot maydonida milliy manfaatlar himoyasini ta'minlash. Mazkur maqsadga erishish esa turli mamlakatlar tomonidan turlicha amalga oshiriladi: texnologik kuchli davlatlar hukmronlik qilishga intiladi, rivojlanayotgan davlatlar esa o'zini himoyalashga harakat qiladi. Ikkala tomon ham o'ziga qulay usullardan foydalanadi.

Ammo shunisi ham borki, texnologik jihatdan kuchli davlatning axborot hujumi boshqa mamlakatlar aholisiga katta psixologik zarar etkazadi. Chunki bunday urushni to'xtatadigan va agressor-davlatga nisbatan chora ko'rish uchun imkoniyat yaratadigan xalqaro me'yoriy hujjat yo'q. Rivojlangan mamlakatlar ushbu vaziyatdan keng foydalanmoqdalar.

SHu sabab yuqorida keltirib o'tilgan axborot xurujlaridan munosib himoyalaniş uchun, eng avvalo jamoatchilik ongida bunday harakatlarga qarshi kuchli g'oyaviy, kerak bo'lsa milliy manfaatlar bilan yo'g'rilgan umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish kerak.

Bugungi kunda O'zbekistonda bu kabi xavfli mafkuraviy ta'sirlarga qarshi shart-sharoitlar izchil yaratilib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Axborot olish, qayta ishlash, tarqatish va ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solishga doir qonuniy baza yaratildi va bu ish takomillashtirilib borilmoqda.

2. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari yaratilmoqda.

3. Ommaviy axborot vositalari sohasida universitet darajasida mutaxassislar tayyorlanmoqda.

4. Zamonaviy axborot texnologiyalarini sotib olish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari shakllantirildi.

5. Ommaviy axborot vositalari modernizatsiya qilinmoqda. (kompyuterlashtirish, internet tarmog'iga ulanish, axborot agentlarini faollashtirish, axborot sohasida nodavlat sektorni rivojlantirish va h.k.)

6. Hukumat faoliyatiga doir axborotlar bilan fuqarolarni izchil tanishtirib borish asoslari amal qilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, axborot xavfsizligini ta'minlash tushunchasi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi strategik vazifalardan biri bo'lib, chegaralar yuvilib ketish ehtimolligi kuchli bo'lgan bugungi informatsion davrda bu ishlar axborot jamiyatini ta'sis etish imkonini beradi. SHunday ekan kelajagamiz poydevori bo'lgan yoshlar ongida axborot xavfsizligini ta'minlash va ularni milliy mentalitetimiz ruhida tarbiyalashni davr o'zi talab etmoqda.

## **II bob bo'yicha xulosa**

II bob bo'yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

Ilmiy-texnik taraqqiyotda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari birinchidan, sog'lom nasl, sog'lom avlodni hosil qilish ishlarining izchil yo'lga qo'yilganligi; ikkinchidan, dunyoga kelgan sog'lom naslni barkamol etib tarbiyalash uchun ularga dunyoviy bilimlarning sir – asrorlarni o'rganish ishlarining ta'lim muassasalarini tashkil etish orqali amalga oshirilayotganligi; uchinchidan, kuchli ijtimoiy himoya yuritish asosida barcha kam ta'minlangan oilalar, nogironlar va keksalarning munosib turmush



kechirishlari uchun shart – sharoitlar yaratib berilayotganligi; to‘rtinchidan, zamonaviy bilim cho‘qqilarini egallash uchun zarur bo‘lgan axborot va kommunikatsion vositalar bilan ta‘minlash ishlarining muntazam ravishda amalga oshirilayotganligi bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida axborot xavfsizligini ta‘minlash O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi strategik vazifalardan biri bo‘lib, chegaralar yuvilib ketish ehtimolligi kuchli bo‘lgan bugungi informatsion davrda bu ishlar axborot jamiyatini ta‘sis etish imkonini beradi. SHunday ekan kelajagamiz poydevori bo‘lgan yoshlarni ilmiy-texnika yutuqlaridan to‘g‘ri foydalanish va ular ongida axborot xavfsizligini ta‘minlash, ularni milliy mentalitetimiz ruhida tarbiyalashni davr o‘zi talab etmoqda.

### **III BOB. IJTIMOIIY VA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI: TEXNOGEN SIVILIZATSIYA VA MA'NAVIY INTEGRATSIYA.**

#### **3.1 Globallashuv sharoitida ilmiy-texnika taraqqiyotida texnogen sivilizatsiyaga munosabat.**

Hozirgi davrda dunyoda: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlari, aytish mumkinki, butun insoniyat qadriyat mo'ljallarini, sivilizatsiya taqdirini u yoki bu tomonga o'zgartirish uchun zarur shart-sharoit yaratmoqda. SHuning uchun globallashuv jarayonining ijobiy natijalarini ommalashtirish, salbiy oqibatlarini bartaraf qilish muammoalari echimini topish, jahon hamjamiyati diqqat-e'tibori markaziga qo'yilmoqda. Xususan, texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi dunyodagi barcha xalqlar va millatlar uchun, bir tomondan, progressiv fan, intellektual salohiyat, texnika, texnologiya yutuqlaridan, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish-umuminsoniy, integrativ-global qadriyatlar shakllanishini, ikkinchi tomondan, aynan shu vositalardan muayyan siyosiy-mafkuraviy utilitar-merkantil manfaatlarga mos foydalanish - antigumanistik, g'ayriaxloqiy "ommaviy madaniyag" tahdidi eskalatsiyasini kuchaytirib yubormoqda. Bunday sharoitda, uning transformatsiyasi umuminsoniyat ma'naviyatiga, sivilizatsiyasi istiqbollari ijobiy va salbiy ta'sir imkoniyatlarini, usullarini, rivojlanish tendensiyalarini: "ehtiyoj - maqsad - manfaat - vosita - natija" tizimi elementlari munosabatni: mahalliy, milliy, hududiy va global darajalar kontekstda o'rganish muhim nazariy, metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuvi jarayonida bu tizim elementlarining har birini yuksak ma'naviy-axloqiy normalar, demokratik va gumanistik tamoyillar asosida tashkillashtirish, umumlashtirib aytganda-insonparvarlashtirish masalasi, jahon ilmiy

hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammodir. Zero, nazariy jihatdan olganda, uning ratsional hal etilishi, har qanday global muammo echimiga universal asos bo‘ladi. Hozir gap shu turli muqobil nazariyalarning o‘zaro konsensus nuqtasini topib, amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini, vositalarini topishda qoldi, xalos.

Texnogen sivilizatsiya globallashuvi maqsadida ham, vositalarida ham, natijalarida ham, bir-biriga tubdan qarama qarshi ijobiy va salbiy jihatlari asosida - jamiyatni tashkil qilgan ijtimoiy birliklar manfaatlari muqobilligi yotadi. SHu nuqtai nazardan, texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuvining ijobiy yoki salbiy oqibatlarini, jamiyatga ta’sir yo‘nalishlarini, funksional ahamiyatiga ko‘ra: etikaning ezgulik va yovuzlik, xarizmatizm va egoizm; estetikaning - go‘zallik va xunuklik, iqtisodpyotning - foyda va zarar, siyosatshunoslikning - progress va regress, agressiya va kompromiss, ideolognyaning - bunyodkorlik va vayronkorlik kabi kategoriyalari kontekstida o‘rganish, uning mazmuni, mohiyati haqida, nisbatan to‘liq tasavvurlarni shakllantiradi.

Umuman, falsafiy adabiyotlarda texnogen sivilizatsiya globallashuvi ijtimoiy fenomeniga munosabatda muqobnl: radikalizm va liberalizm yondashuvlari kuzatilmoqda<sup>30</sup>. YA’ni, birinchi yo‘nalishga - radikalizm oqimiga mansub olimlar globallashuvni yangi tipdagi jahon urushi yoki uning avj olishi “ommaviy madaniyat”ni shakllantirishi, millatlarni ma’naviy qashshoqlashuvga, inqirozga olib kelib, ularni o‘zligini anglamaydigan manqurtlarga - marginallarga aylantirish imkoniyati<sup>31</sup>, degan pessimistik xulosalar ustuvorlik qilsa, ikkinchi - liberalizm ta’limotlarida texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuv jarayoni-insoniyatning umumiy rivojlanish qonuniyati, uning kelajak istiqbolini ta’minlash imkoniyati tarzida izohlanadi.

Bundan tashqari, hozirgi davrda texnogen sivilizatsiya globallashuv

---

<sup>30</sup> Шу ўринда радикализм ва либерализм оқимларида: оптимистик, пессимистик, скептик, алармистик йўналишларнинг ўзига хос таълимотлари мавжудлигини ҳам эътироф этиш керак.

<sup>31</sup> Қаранг: Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. Тошкент. “Янги аср авлоди”, 2008. -201 бет

jarayoniga nisbatan shakllangan jahon ilmiy jamoatchilik fikrini, tubdan qarama qarshi bo'lgan: globalistlar va antiglobalistlarga ajratishni ham, uning natijalariga muayyan manfaatlar asosida yondashuvning namoyon bo'lishi tarzida qaralishi kerak. Lekin texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va uning globallashuvi natijalariga muayyan manfaatlarga ko'ra yondashishlar, ularga nisbatan muqobil munosabatlarga asosiy sabab bo'lsa ham, baholashning umuminsoniy mezonlari (xalqaro huquq normalari, ma'naviy-axloqiy tamoyillari) shakllangan va har qanday tarixiy davrda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Bu mezonlarni konkret tarixiy zamon va ijtimoiy makonning: iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy tizimi xarakteri, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti xususiyatlari kontekstida (umuminsoniy gumanistik va demokratik tamoyillarga mos kelishi yoki zidligi nuqtai nazaridan) baholash kerak.

Umuman globallashuv jarayoni, xususan texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasining retrospektiv asoslari, tarixiy genezisi tadqiqotiga oid adabiyotlarda. uni qadimiy antik dunyo tarixiy voqeligini belgilovchi muayyan determinlashtiruvchi, harakatlantiruvchi omillar bilan bog'lab izohlash, nisbatan keng tarqalgan. YA'ni, dastlab bu jarayon harbiy-bosqinchilik harakatlarida namoyon bo'lib, keyinchalik: iqtisodiy, geosiyosiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy, ekologik, lingvinistik, kommunikatsiyaviy globallashuv shakllari paydo bo'lishi bilan bog'liq, degan umumiy xulosa chiqarilgan<sup>32</sup>

Darhaqiqat, insoniyatning dommiy o'sib boradigan iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga, siyosiy mavqeini mustaxkamlashga, hayot tarzini o'zgartirishga intilishlari ijtimoiy faoliyat ko'lamini, makonini kengaytirishiga olib kelgan. Bunda harbiy kuch ishlatish natijasidagi "zo'raki-majburiy globallashuv muayyan siyosiy manfaatlarga mos bo'lsa, uning aksi "ixtiyoriy-erkin globallashuv" umuminsoniyatning ob'ektiv ehtiyojlaridan kelib chiqib, manfaaglari umumiylikiga, demokratik va gumanistik tamoyillarga asoslanishn

---

<sup>32</sup> Қаранг: Юлдашева Ф.Методологические проблемы: исследование процесса глобализации. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2008. № 2. 70-71 бетлар.

- oqibatlarini xarakterini belgilab bergan. Boshqacha qilib aytganda, harbiy agressiyalar, ekspansiyalar natijasida shakllangan “sivilizatsiyalar” globallashtirish jarayonining ham, oqibatlarining ham, bu tamoyillarga hech qanday aloqasi yo‘q, aksincha ular ixtiyoriy-erkin globallashtirishning mazmun-mohiyatiga putur etkazadi.

Zamonaviy sivilizatsiyalar globallashtirish jarayoni, insoniyat tarixiy taraqqiyoti istiqbolini belgilaydigan ijtimoiy fenomen sifatida, faqat XX asrning 90- yillardan boshlab ilmiy tadqiqot ob’ektiga aylandi va maxsus o‘rganuvchi “Globalistika” fani vujudga keldi. Hozir uning nazariy-metodologik asoslari, kategoriyalari tizimi, tushunchalari apparati shakllanib, tarixiy bosqichlarini, yo‘nalishlarini, oqibatlarini baholash mezonlarini belgilashga doir muqobil ilmiy ta’limotlar tizimi “konturlari” aniqlanmokda.

Bu ta’limotlarga ko‘ra, “globallashtirish” fenomeni, bir tomondan, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining ob’ektiv qonuniyati bo‘lib, unga real imkoniyatlar yaratmokda. Xususan, sivilizatsiyalarning (qanday sohalardaligi va ko‘lamidan qat’iy nazar) globallashtirish tendensiyalari, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlari: integratsiyalashuvini, universallashtirishini, internatsionallashtirishini determinlashtiruvchi sabab hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa, uning salbiy natijalari transformatsiyasi va globallashtirish qator yangi ijtimoiy muammolar kompleksini vujudga keltirib, mavjudlarini kuchaytirmoqsa. Xususan, texnogen sivilizatsiya salbiy oqibatlarini transformatsiyasi: shaxs marginallashtirishini, tarixiy qadriyatlar merosidan begonalashib, ularga nigilistik munosabatni, “ommaviy madaniyat” eskalatsiyasini. egoizmni, kosmopolitizmni, individualizmni, etnoegotsentrizm, ksenofobiya hodisalari ko‘lamini kengaytirib yubormoqda.

Globallashtirishning tarixiy-ob’ektiv zaruriyat, tabiiy-tarixiy rivojlanish natijasida va kuch ishlatib zo‘ravonlik bilan shakllanishini bir-biridan farqlash kerak. Lekin har qanday ijtimoiy hodisaning, muqarrar ravi shda, muayyan

ob'ektiv asoslarga tayanishini ham, tasodiflar zaruriyatni namoyon qilishini ham, e'tiborga olish zarur.

Ammo sivilizatsiyalar tarixi globallashuv jarayonining bir-biriga zid bu yo'nalishlarda (ayrim xususiy hollarni e'tiborga olmaganda), ijobiy oqibatlari ustuvorligini ko'rsatmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyotida hamma vaqt: ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik, yaxshilik va yomonlik, progress va regress va boshqa antipodlarda ijobiy hodisalar ustuvorligi hal qiluvchi rol o'ynagan, ya'ni aql - hissiyotlardan, umuminsoniy manfaatlar - individual-shaxsiy (ayniqsa, utilitar- merkantil) manfaatlardan yuqori qo'yilgan. Bulardan tashqari, hozirgi zamonda dunyo global sivilizatsiyasini geografik jihatdan shartli ravishda, "G'arb" va "SHarq"ga ajratish asosida ham, ularning texnogen rivojlanish darajasi asosiy mezon hisoblanadi.

Umuman globallashuv jarayonining ijobiy natijalari, nisbatan universal umuminsoniy normalar shakllanishiga asos bo'layotgan hozirgi sharoitda, "sivilizatsiyalashgan dunyolar" o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashuvini, ularning ma'naviy-madaniy "qashshoqligi", noqisligi, nomukammalligi tarzida baholash kerak. YA'ni qarama-qarshi ehtiyojlar, manfaatlar va tendensiyalar "sivilizatsiyalar to'qnashuv"ga, qadriyatlar konfliktlariga sabab bo'lmoqda<sup>33</sup>. Agar, bu ziddiyatlar dunyodagi turli etnik va konfessional birliklarning tarixiy shakllangan: siyosiy mavqei, iqtisodiy ahvoli, ma'naviy-madaniy qadriyat mo'ljallari kontekstida tahlil qilinsa, umuman sivilizatsiya yo'nalishlari, (ayniqsa, texnogen sivilizatsiya) rivojlanish bosqichlari va oqibatlari haqidagi qarashlarpi koikretlashtiradi va ularning transformatsiyasi mazmunini, mohiyatini, funksional ahamiyatini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuvi (yuqorida ko'rsatilgan ziddiyatlaridai qat'iy nazar), milliy qadriyatlarning

---

<sup>33</sup> Каранг: Аксюмов Б.В. «Столкновение цивилизаций» как конфликт между традиционностью и современностью. // «Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации». Материалы Международной научно-практической конференции. Бишкек, 2007. С. 9-10.

umuminsoniyat ehtiyojlari va manfaatlari asosida integratsiyalashuvini, sintezlashuvini ko‘ramiz. YA’ni sivilizatsiyalar globallashuvida milliy ma’naviy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasi ob’ekt-sub’ekt munosabatlarini dialektik sintezlashtiruvchi omil hisoblanadi. SHunga ko‘ra, texnogen sivilizatsiya globallashuvi, bir tomondan, muayyan (mahalliy, lokal yoki hududiy) ijtimoiy makonda, milliy qadriyatlar transformatsiyasining texnologik integratsiyalashtiruvchi potensialini namoyon qiladi. Ikkinchi tomondan esa, insoniyatning ijtimoiy munosabatlari globallashuvi darajasini, jahon hamjamiyati ma’naviy integratsiyasi bosqichini belgilaydigan asosiy mezon funksiyasini bajaradi. Bunda texnogen sivilizatsiya natijalarining transformatsiyasini ularga ham asos, ham natija sifatida qarash kerak.

Texnogen sivilizatsiya globallashuvi turli xalqlar, millatlar ma’naviy-madaniy qadriyatlari (xususan, transformatsiya usul-vositalari) integratsiyasi natijasida sodir bo‘ladi. SHu bilan birga, global texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi: mahalliy, milliy, hududny madaniyatlar integratsiyalashuvini namoyon qiladi. Mazkur jarayonlarning asosida umuminsoniy universal-integrativ ma’naviy qadriyatlarga ehtiyoj va uni qondirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar tizimi yotadi. SHu nuqtai nazardan, ma’naviy-madaniy integratsiyaning hosilasi bo‘lgan texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvi, insoniyat kelajagini saqlab qolishini determinlashtiruvchi omillaridan biridir.

Lekin mavjud olamshumul muammolarmi (xususan, texnogen sivilizatsiya salbiy oqibatlarini bartaraf etish), faqat xalqaro xamjamiyatning hamkorlikda hal qilinishi, muqobili bo‘lmagan aksiomatik haqiqat va turg‘un postulat maqomiga egadir. Zero, global muammolar echimi - dunyodagi barcha davlatlar xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda xalqlarning o‘zaro kelishilgan yakdil amaliy harakatlarini taqozo qiladi. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi» Olny Majlisi Qonunchilik palatasi va

Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida: “Butungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘shib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi”<sup>34</sup>, degan xulosasi bu sohada ham xalqaro hamkorlikni taqozo qiladi.

Ammo, hozircha, ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablarga (asosan, turli bahonalarga) ko‘ra, bunga hozircha erishishning imkoniyati bo‘lmayapti. Chunki, yuqorida aytganimizdek, har bir millat, davlat, mintaqaning o‘ziga xos “mental ehtiyojlari”, ularni qondirishning potensial imkoniyatlari, global muammolar echimidan individual manfaatdorligi mavjud. Shuning uchun hozirgi davr global muammolar tizimini turkumlashtirish, ularni hal qilish tamoyillari va tartibini: mahalliy, milliy va hududiy ehtiyojlarni, individual manfaatlarni e‘tiborga olib aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda olamshumul muammolar echimiga muqobil yondashuvlarni umuminsoniy gumanizm va demokratiya tamoyillarga ko‘ra tashkil qilishda texnogen sivilizatsiya transformatsiyasining potensial imkoniyatlaridan foydalanish masalasi, hozircha ochiq qolmokda.

Xalqaro ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-mafkuraviy munosabatlar keskinlashayotgan va globallashtayotgan sharoitda: “sivilizatsiyalar dialogi va xalqaro madaniy aloqalarning yangi darajasi”<sup>35</sup> yoki “iqtisodiyot va siyosat rivojlanishining oliy bosqichi, madaniyat rivojlanishining esa, boshlangich holati”<sup>36</sup>, degan ta‘riflarni sivilizatsiyalar salbiy oqibatlari kontekstida qaraydigan bo‘lsak, ularni bartaraf qilishning nazariy-metodologik asoslari

---

<sup>34</sup> Каримов Ислом Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қоиунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи. 2015 йил, 23 январь,

<sup>35</sup> Махкамова Д. Центральная Азия и странам Востока на пути сотрудничества и диалога культур. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2004. № 2. С.20.

<sup>36</sup> Адилходжаева С.М. Глобализация и вопрос устойчивого развития государства. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2008 № 3. С.55.



voqelikdan ajralgan, deklarativ xarakterga egaligini ko‘ramiz. Chunki har qanday sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvini universal ratsional maqsadiga muvofiqlik tamoyiliga ko‘ra baholashda (hozircha, aniq mezonga yoki uning tizimiga ega bo‘lmasa ham) umuminsoniy gumanistik mazmuni va demokratik xarakterining ustuvorligi doimiy determinlashtiruvchi omilligi asosiy ko‘rsatkich sifatida e‘tiborga olinishi kerak.

SHu nuqtai nazardan ayrim olimlar tomonidan, sivilizatsiyalar transformatsiyasi, xususan texnogen sivilizatsiya globallashuvining ijobiy va salbiy oqibatlarini insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hayot normalarini, an‘analarini hamda kishilarning, xalqlarning an‘anaviy hayoti va tafakkur tarzini buzuvchi - anomal globallashuv va ularning hayoti asoslariii ta‘minlash sistemasini yaratuvchi - effektiv-ratsional globallashuv jarayonlarini farqlash haqidagi fikrlari muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega<sup>37</sup>. Lekin, anomal globallashuvning tom ma‘nodagi sivilizatsiya bilan hech qanday umumiyliги yo‘q, balki insoniyat tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa hayot sohalarining sivilizatsiyalashmaganligi belgisi, ko‘rsatkichi sifatida e‘tirof etilishi kerak. SHuningdek, texnogen sivilizatsiyani effektiv-ratsional globallashuv nuqtai nazaridan baholash xam nisbiy va shartlidir. SHunga ko‘ra, sivilizatsiyalarning “effektivlik”, “ratsionallik” mezonlari, mikdoriy indeksleri dinamik o‘zgaruvchanligini, ijtimoiy makon va tarixiy zamon xususiyatlarini e‘tiborga olib, konkret differensiallashgan-individual yondashuvni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov “YUksak ma‘paviyat - engilmas kuch”, degan kitobida globallashuv fenomenining ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama chuqur yoritib bergan. Xususan, ijobiy tomonlari hakidagi fikri bevosita texnogen sivilizatsiya globallashuviga bevosita taalluqlidir, ya‘ni: “Hozirgi paytda uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta‘sirini deyarli barcha

---

<sup>37</sup>Карагг: Кузнецов В. Геокультура. Основь! геокупля о динмики безопасности в мире XXI век: культура сеть. М., Книга и Бнзнес, 2003. С. 416.

sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangn ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda umumlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etish, ekologik oqibatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmokda”<sup>38</sup>- deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, texnogen sivilizatsiya globallashuvi: birinchidan, umuminsoniyatning turmushi va tafakkur tarzini, umuman madaniyat, xususan texnologik madaniyat asosida tashkil etish usuli, vositasi hisoblanadi; ikkinchidan, milliy texnogen sivilizatsiyalarning global jarayonga integratsiyalashuvi tarixiy shakllangan ob’ektiv shart-sharoitlar va sub’ektiv omillar birligini taqozo qiladi; uchinchidan, jamiyatda texnogen sivilizatsiya globallashuvi jarayoniga adekvat bo‘lgan ijtimoy-siyosiy munosabatlar tizimi shakllanishi, uning asosiy sharti va determinlashtiruvchi omildir; to‘rtinchidan, texnogen sivilizatsiyaning inson ijtimoiy faoliyati sohalariga ijobiy ta’sirini baholashda, uniig universal regulyativ funksiyasi va real imkoniyati nuqtai nazaridan qarash kerak; beishnchidan, insoniyat tarixini hozirgi bosqichida vujudga kelgan global muammolar tizimini texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasini oqilona tashkillashtirish, boshqarish orqali ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish va oldini olish mumkin.

Globalashuv jarayonining ijobiy va salbiy oqibatlari haqidagi muqobil falsafiy ta’limotlar, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini saqlab qolishdan iborat umuminsoniy muammolar echimida:mavsumiy deklarativ chaqiriqlardan, mavjud etnoegoistik, etnoegotsentristik stereotiplardan voz kechib, xalqaro

---

<sup>38</sup> Каримов И. Юксак маънавият- энгилмас куч. 111-112 бетлар.

hamjamiyatning amaliy faoliyatga o'tish zaruriyatini e'trof qilish masalasida umumiy konsensusga - yakdil xulosaga kelmoqdalar. Biroq, sivilizatsiyalar ma'naviy paradigmalari, mafkuraviy postulatlarini dinamik o'zgarishlari bilan insonning globallashtirilgan jarayonlarga adaptatsiya imkoniyatlari o'rtasida uzilishlar aniq ko'zga tashlanmoqda.

SHunga ko'ra hozirgi davrning asosiy talabi texnogen sivilizatsiya globallashtirish kommunikativ-integrativ funksiyasini millatlararo ma'naviy-madaniy munosabatlar integratsiyasini konstruktiv-ratsional tashkillashtirishdan, tarixiy meroslarini saqlab qolish hamda ijodiy rivojlantirishdan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. CHunki har qanday sivilizatsiyaning atributiv o'zagi bo'lgan "ma'naviyat har doim to'ldirilib turiladigan uzluksiz jarayondir. U o'zgarib boruvchi zamon bilan, uning zaruriy talab va ehtiyojlari bilan uzviy dialektik bog'liqlikda o'zgarib takomillashib boraveradi. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doim o'zgarish va yangilanishda bo'ladi"<sup>39</sup>.

Dunyo xalqlarining har qanday tarixiy davrda, ma'naviy-madaniy munosabatlari integratsiyasi jarayonida: qadriyatlarini merosini. progressiv an'analarni ijodiy rivojlantirish va o'zlashtirish, umuman sivilizatsiyalar, xususan texnogen sivilizatsiya globallashtirishining asosiy tamoyili, qonuniyati sifatida namoyon bo'lgan. Zero, sivilizatsiyalar globallashtirishining oqibatlari hakida gapirganda, ma'naviy munosabatlarning integratsiyasi - umuminsoniy madaniyat universalligi shunday asos yaratadiki, uning atrofida har qanday ijtimoiy faoliyat yo'nalishlari kristallashadi<sup>12</sup>.

Bu hodisa, o'z navbatida, texnogen sivilizatsiya globallashtirish jarayonini ham, milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi yo'nalishlarini ham, oqibatlarining ijobiy yoki salbiy xarakterini ham belgilab beradi. SHuningdek,

---

<sup>39</sup> Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан курашимиз. 7-жилд. Т.. 1999. 302-бет.

texnogen sivilizatsiya globallasuviga va xalqaro ma'naviy-madaniy munosabatlar integratsiyasiga ehtiyoj — umuminsoniyatning ijtimoiy, iqtisodii, siyosiy sohalaridagi strategik hamkorlik yo'nalishlarini ham, taktik vazifalarini xam konkretlashtiradi. Lekin dunyodagi barcha davlatlarning texnogen sivilizatsiya globalashuvi umumiy tamoyillariga birdek amal qilmasliklari, yuqorida aytganimizdek, ularning utilitar-merkantil etnoegoistik va egotsentristik manfaatlarini mutlaqlashtirishi oqibatidir. Boshqacha qilib aytganda, texnogen sivilizatsiya oqibatlari globallasuvidan manfaatdorlikning differensiallashuvini ham, ularning natijasi, deb baholanishi kerak.

Umuman, dunyo miqyosida globaliashuv jarayonining salbiy oqibatlari keskinlashayotgan sharoitda umuminsoniy va milliy manfaatlarni uyg'unlashtirish asosida global barqaror rivojlanishini ta'minlash - xalqaro munosabatlarning bosh strategik maqsadini tashkil qiladi. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning milliy modellari texnogen sivilizatsiya globallasuvi va ma'naviy-madaniy integratsiya jarayonlaridan mustaqil amalga oshmaydi. Aksincha, global barqaror taraqqiyotning muqobil milliy modellari davlatlar o'rtasidagi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni kuchaytirish va kengaytirish zaruriyatini e'tirof qilish nuqtasida umumiy xulosaga kelmoqdalar.

Bu metodologik tamoyilga asoslanib aytganda, biz tadqiq qilayotgan mavzu doirasida, texnogen sivilizatsiya globallasuvi xalqaro munosabatlar integratsiyasining (sohalaridai qat'iy nazar) asosiy tendensiyalarini, ularning ijobiy natijalarini belgilab bermoqda, ya'ni: dunyodagi turli davlatlar va millatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ( madaniy munosabat paradigmalarining: umuminsoiiy universal tamoyillarini, xalqaro huquqiy asoslarini, ma'naviy-axloqiy normalarini, siyosiy mexanizmlarini shakllantirmokda; ikkinchisi - xalqaro munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning global institutsional tizimi strukturasiidagi funksional aloqadorlik ko'lami kengaymoqda; uchinchisi - millatlarning texnogen sivilizatsiyalar

globallashtiruviga mos: fan, texnika, texnologiya, intellektual salohiyat rivojlanishida umuminsoniy-gumanistik va demokratik qadriyatlar ustuvorligini anglash va ularga intilish jarayoni kuchaymoqda. Bu tendentsiyalarning umumiy maqsadi - har bir millatning o'z tarixiy mental xususiyatlaridan kelib chiqadigan (har qanday tashqi ta'sirlarga qaramasdan) demokratik-huquqiy davlatini va fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat<sup>40</sup>. Zero, hozirgi davrda texnogen sivilizatsiyani globallashtiruvchi xalqaro institutsional tizimni, qonuniy-huquqiy asoslarni, ma'naviy-axloqiy normalarni, siyosiy mexanizmlarni, umuman barqarorligini determinlashtirish ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar uyg'unligini ta'minlash, uning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Umumlashtirib aytganda, globallashtiruvchi texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasining jamiyatga ta'sir doiralari va imkoniyatlari: birinchidan, texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashtiruvchi har qanday milliy davlatning xalqaro mavqei va maqomi uning jahon hamjamiyati bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorlikdan manfaatdorligiga; ikkinchidan, tarixiy shakllangan milliy texnogen sivilizatsiya an'analarini, merosini saqlashiga, dunyo xalqlari tajribalarini transformatsiyasi va ijodiy rivojlantiruvchi ob'ektiv shart-sharoitlari sub'ektiv omillari etarlicha; uchinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashtiruvchi ob'ektiv xarakterini zaruriyatini, imkoniyatlarini anglash asosida, uning tendentsiyasini, transformatsiyasi yo'nalishlarini prognozlashtirish vazifalarini belgilashga; to'rtinchidan, umuminsoniy va milliy qadriyatlar integratsiyasini global texnogen sivilizatsiya manfaatlari bilan uyg'unlashtirishning konstruktiv usullarini, ratsional vositalarini yaratishga; beshinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashtiruvchi muhim sub'ektiv bo'lgan milliy davlatlar boshqaruv tizimi demokratik xarakteriga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, mafkuraviy qarama qarshi qutbli dunyoning barham topishi, nazariy

---

<sup>40</sup> Каранг: Хантингтон С. Столкновение цивилизации П. -С. 409.

jihtadan, umuminsoniy sivilizatsiyani tashkil qilishga, uning salbiy oqibatlarini bartaraf kilishda xalqaro hamkorlikka asos bo'lishi kerak edi. Vaholanki, vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy borliq rivojlanishining tajribalari bevosita va bilvosita sivilizatsiyalar natijasi bo'lgan global muammolar eskalatsiyasini kuchaytirib va keskinlashtirib yubormoqda.

### **3.2 Ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotda - ma'naviy integratsiya.**

Jamiyat bir butun yaxlit sotsial sistema bo'lib, unda sodir bo'ladigan jarayonlar bir-biri bilan o'zaro ta'siri, o'zaro aloqadorligi natijasida integratsiya (birlashish) negizida uzluksiz tarzda ijtimoiy taraqqiyot yuzaga keladi.

Etuk faylasuf olim M.O.Olloyorov fikricha, «integratsiya jarayoni – bu muayyan sistema tartibidagi qismlarning ichki, o'zaro tasiri, o'zaro aloqasi bo'lib, buning natijasi o'laroq, mazkur sistemaning yaxlit butun sifatidagi mavjudligi va o'zgarish, taraqqiyoti yuzaga keladi va shu ma'noda integratsiya jarayoni borliqdagi narsa, hodisalarning sistema tarzida mavjudligi usuli hisoblanadi»<sup>41</sup>, - deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, integratsiya to'g'risidagi g'oyalarning paydo bo'lishining tarixiy ildizi qadimgi yunon antik davrida va eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda yurtimiz hududida paydo bo'lgan zardushtiylik talimotiga borib taqaladi.

Ijtimoiy hayotda birlashishsiz ajralish va ajralishsiz yaxlit tarzda birlik yo'q, bu o'ziga xos qonuniyat tarzida namoyon bo'ladi, «Avesto»da ilgari surilgan ezgulikni tarqatuvchi Axura Mazdani birlashtiruvchi, tabiat va inson uyg'unligini taminlovchi, yovuzlik timsoli bo'lgan Axrimanni unga qarama-qarshi qo'yib, muvozanatni, tinchlikni, barqarorlikni buzuvchi kuch timsoli sifatida ifodalangan. Aslida matematika fani atamasi bo'lgan «integratsiya» (lot. Integratio – birlashish , integer – butun)<sup>42</sup> ma'nosini anglatib, bu tushuncha

---

<sup>41</sup> M.O.Оллаёров. Интеграция жараёнининг тарихий-фалсафий асослари хусусида. «Ҳозирги давр цивилизацияси ва ижтимоий интеграция муаммолари». Самарқанд, 2006, 1-қисм, 68-бет.

<sup>42</sup> Фалсафа комусий луғат. Т., «Шарк» нашриёти, 2004 йил, 167-бет.

o'tgan asrning 80-yillarida fanda qo'llanila boshlagan. Dastlab tabiiy fanlarda qo'llanila boshlangan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy-gumanitar fanlar soxasiga ham kirib kelgan.

Millatlarning ma'naviy integratsiyasiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklar, asosan sub'ektiv xarakterga ega. Bunda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan 2 jarayon ko'zga tashlanmoqda. Bir tomondan, muayyan davlatlarning ma'naviy integratsiyadan dunyoda – gegemonlik, ustuvor mavqega intilish siyosati millatlar manfaatlarini o'rtasidagi qarama-qarshiligini kuchaytirib, ma'naviy integratsiyalashuv jarayonida qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Ikkinchi tomondan, har bir mamlakatda milliy xudbinlik qoldiqlaridan qutilishga intilish va ma'naviy integratsiya ehtiyojini, zaruriyatini anglashi, turli mamlakatlarning bu jarayonga munosabatini o'zgartirmoqda.

Dunyo davlatlari ma'naviy munosabatlarida integratsiya jarayoni rivojlanishda, ularning milliy va umuminsoniy manfaatlarini e'tiborga olish:

1).Ma'naviy vaziyatni, xususan tahdid ko'lamini xolis baholash, avvalo mahalliy lokal, milliy manfaatlarini, so'ng esa mintaqaviy va jahon ko'lamida ma'naviy rivojlanish tendensiyalariga differensial yondashishni;

2).Ma'naviy integratsiya ob'ektiv jarayon sifatida, ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichiga xos globallashuv hodisasi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirishini;

3).Ma'naviy munosabatlarning integratsiyasi va globallashuvi, uning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishga doir institutsional tizimini tashkillashtirish qonuniyatlarini bilishni taqozo qiladi.

Ma'naviy integratsiya, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, sayyorada yashayotgan insoniyatning qaysi etno-demografik guruhga(millatga, irqqa, avlodga, jinsga), qaysi geografik kenglikda yashashiga(mintaqada, davlatda) qanday sotsiumga (madaniyatga, konfessiyaga, mafkuraga) mansubligiga qaramasdan, pirovard natijada, ularning sub'ektlari majmui sifatidagi insonning

ma'naviy yashash makonini tashkil qilgan elementlar aloqadorliklaridagi umumiylikni namoyon qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Turli mamlakatlarning mustaqilligi asosida ma'naviy integratsiya masalasida umumiy manfaatdorlik, unga xalqaro miqyosda tahdidlarni bartaraf qilish uchun qulay zamin yaratadi.

Davlatlararo, millatlararo ma'naviy integratsiya: manfaatlar umumiyligi asosida birgalikda harakat qilishga intilishida xalqaro tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarning mustahkamlanishida namoyon bo'lsa ham, har bir davlatda individual shakli va mundarijasiga ega. Ma'naviy munosabatlarda chuqurlashib borayotgan integratsion jarayonlar, o'zining natijalariga ko'ra, xalqaro, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarning rivojlanishi bilan ob'ektiv qonuniy xarakter kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, ma'naviy integratsiyaning xususiyatlari, bir tomondan davlatlararo ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar xarakteri bilan belgilanadi. Ikkinchi tomondan esa, aynan shu munosabatlar xalqaro ma'naviy integratsiyaning qonuniyatlarining umumiy aloqalar tizimidagi muhim elementi hisoblanadi.

«Integratsiya» tushunchasi o'zining ijtimoiy mohiyatiga ko'ra insoniyat tarixidagi barcha voqea-hodisalarda birlashtirish funksiyasini bajarib kelgan, lekin bu birlashtirish turli maqsadlarda qo'llanilgan. Ko'pincha ijtimoiy hayotda ba'zi shaxslar dunyoni egallash unga hukmronlik qilishdek maqsadni amalga oshirishga qaratilgan xarakatlar bo'lganligini, o'tmishda sodir bo'lgan fojialarni tarixiy voqealar shundan dalolat beradi. Masalan, o'zlarining yovuz maqsadlarini amalga oshirishda yovuz kuchlar bilan birlashib (integratsiya) o'zga xalqlar boyliklarini talashga qaratilgan xarakat qilgan shaxslar Aleksandr Makedonskiy, CHingizxon, Napoleon, Gitler, Musolini, Stalin kabi shaxslar o'zlarining ekspansiv maqsadlarini amalga oshirishda yovuz omillardan foydalanib, millionlab odamlarning yostig'ini quritib, xonavayron qilgan.



Oqibatda, ko‘plab qaram qilingan mamlakatlar inqirozga yuz tutib ijtimoiy taraqqiyot jihatidan zaiflashib qolishga sabab bo‘lgan.

Darhaqiqat, XXI asrda hayotning o‘zi insoniyat oldiga shunday muhim global muammolarni hal etishni zaruriyat qilib qo‘ydiki, ularning echimisiz er yuzida mavjud sivilizatsiyani saqlab qolishning o‘zi dargumon bo‘lib qolmoqda. Bunday muammolarni hal qilish uchun dunyo mamlakatlari xalqlarining o‘zaro hamkorligi, munosabatlariga asoslangan har qanday ekspansiv siyosat va mafkurani inkor etuvchi, sifat jihatidan yangicha, barqarorlikni ta‘minlovchi ijtimoiy integratsiya jarayonini taqoza etmoqda. O‘z vaqtida I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, «XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo‘ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini faqat vaqt taqozasi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman – butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq kerak».<sup>43</sup>

Zero, har bir inson o‘zining nafaqat oilasiga, millatiga, mamlakatiga mansubligini, balki butun insoniyatga ham mansubligini anglashi va butun insoniyatning taqdiri uchun mas‘uliyatini his qilishi orqali shaxsligini namoyon qiladi. Inson o‘zining ijtimoiy mavjudot sifatidagi global makonda yaxlitligini, kelajak avlodlari uchun mas‘uliyatini tobora his qilayotgan hozirgi bu davrda bu yaxlitlikni global miqyosda ratsional – optimal xolatini ta‘minlashning amaliy echimi ma‘naviy integratsiyaga bog‘liqligini insonlar tobora jiddiyligini anglamoqda. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati integratsiya jarayonini hozirgi davr umumbashariy muammolarni hal qilish, zamonaviy sivilizatsiya natijalarini saqlab qolish, barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi omil ekanligiga qaratmoqda. Ma‘naviy integratsiya jarayoni mavjud mintaqaviy va global muammolarni echishda keng imkoniyatlar ochib beruvchi omil bo‘lib xizmat qilishni I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq e‘tiborni

---

<sup>43</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекитсон», 1997 йил, 299 -бет.

qaratib, yurtboshimiz tashabbusi bilan «Turkiston – umumiy uyimiz»<sup>44</sup> g‘oyasi ilgari surildi va u asosda Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat namoyondalari Assambleyasi tashkil topdi, ular o‘rtasida “Abadiy do‘stlik” shartnomalari tuzildi. Qabul qilingan shartnomalarga muvofiq O‘zbekiston, Qozoqiston, Qirg‘iziston, Tojikiston qardosh xalqlarining madaniyat kunlarini o‘tkazish an’anaga aylanib bormoqda.

Respublikamizda chop etilgan “Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at”ida esa, unga hamohang tarzda: ”Integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning sifati jihatidan yangi sharoitga ega bo‘lgan va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ihtiyoriy ravishda birlashishi bir birlariga o‘zaro ta’sir etish jarayoni” (Mustqillik izohli ilmiy ommabop lug‘at. T.: 1998, 71-bet). SHuningdek, O‘zbekiston faylasuflari tomonidan yaratilgan lug‘atda ham: “Integratsiya (lot jnteger -butun) – ayrim qism va elementlarni bir butuncha birlashtirish, turli mamlakatlarning birlashmalari, tor doiradagi iqtisodiy-siyosiy guruhlar qo‘shilishi” (Falsafa: Qomusiy lug‘at.T.: 2004 yil, 167-bet) deb ta’rif berilishi, unga iqtisodiy determinizm nuqtai nazaridan yondashishi ustuvorligini namoyon qiladi.

YUqorida keltirilgan ta’rif va tavsiflarda integratsiya jarayoni faqat ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga xos fenomen sifatida olib qaraladi. Vaholanki, juz’iy ma’noda, integratsiya faqat jamiyat hayotiga xos bo‘lmasdan, balki integratsiya tabiiy va ijtimoiy borliqning ongli ravishda tashkillashtiriladigan, boshqariladigan tizimli mavjudligini, ularning strukturaviy elementlari o‘zaro munosabatini, aloqadorligini ifodalovchi tushunchadir. Zero har qanday tizim qismlari va elementlarning o‘zaro ta’siri aloqadorlikni muayyan sifatga ega narsa va hodisa yaxlit butunligini tashkil etadi.

Integratsiya natijasida muayyan tizim tarkibidagi qism va elementlarning o‘zaro ichki ta’sirlashuvi aloqasi jarayonida uning yaxlit butun sifatidagi

---

<sup>44</sup> И.А.Каримов. Туркистон – умумий уйимиз. Т., «Ўзбекистон», 1995, 13-бет.

mavjudligi va ichki o'zgarishlari yuzaga keladi. SHu ma'noda integratsiya jarayoni borliqdagi narsa hodisalar tizimi mavjudligining atributiv-substansional xususiyati hisoblanadi. Aniq qilib aytganda, mikro, makro va megaolam darajasigacha tizimlarning nisbatan yaxlit, butun tarzda mavjudligi, ularning sifatiiy o'zgarishlari, taraqqiyoti strukturaviy elementlarining o'zaro birlikda keluvchi integratsiya jarayonining turli shaklda namoyon bo'lishidir.

O'zbekistonda bugungi kunda demokratiya, fuqarolik jamiyati barpo etishning strategik vazifasi jahon hamjamiyati bilan hamkorlikdagi faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda amalga oshirilmoqda. SHunga ko'ra qurilayotgan mazkur jamiyat, o'z tabiatiga ko'ra, integratsiyalashgan ochiq ma'naviy jamiyat hisoblanadi. SHuning uchun ham yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotgannining asosiy omili va sababi haqida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqiyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas»<sup>45</sup>.

Darhaqiqat, ma'naviy integratsiya jamiyatimizning strategik maqsadi tomon izchil ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lgan xalqimiz ruhini, ya'ni uning ma'naviy – ruhiy birligini tiklashning asosini tashkil etadi. SHuning uchun yurtboshimiz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, «Xalqning ma'naviy ruhini tiklash, mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir»<sup>46</sup>, deb belgilab berdi.

Hozirgi davrda global ma'naviy muammolarni hal qilishda butun dunyo mamlakatlarining imkoniyatlarini integratsiyalashtirishga qaratilgan ko'p tamonlama muloqatga kirishib, bitimlar tuzishga erishildi. Ko'plab xalqaro

---

<sup>45</sup> И.А.Каримов. «Юксак маънавият – енгилмас куч». Т., «Маънавият», 2008, 111-бет.

<sup>46</sup> И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т., «Ўзбекистон», 1992, 72-73-бетлари.

tashkilotlarga (ittifoqlarga, hamkorliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga) a'zolik, konstitutsiyaviy prinsiplarga asoslanib, davlatlarning global ma'naviy integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishni ta'minlashi tarixiy zaruriyatga aylandi. Natijada xalqaro ma'naviy integratsiyaning strategiyasini belgilashga mutassaddi siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar strukturasi shakllanib bormoqda. SHu bilan birgalikda dunyoning aksariyat davlatlarida, muayyan qiyinchiliklarga qaramasdan, millatlararo ma'naviy aloqalarning integratsiyalashuvi ham xalqaro munosabatlarning ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi kuchayib borishi Respublikaning ochiq siyosati, jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi kuchayishi bilan karakterlanadi. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlarida mintaqaviy ma'naviy hamkorlik sohasida qilinadigan ishlarni rejalashtirish, xalqaro ma'naviy integratsiya jarayonlarini jonlantirish, uning institutsional tizimini shakllantirish, ma'naviy tadbirlarning amaliy samarasini oshirish vazifalari vaziyatga qarab belgilab olinadi. YA'ni davlatlarning ma'naviy integratsiya siyosatida fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, hamkorlikda ishlashning turli shakllarini, institutsional tizimi funksiyalarini muvofiqlashtirish, ularning tashkiliy – huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratiladi. Hozirgi davrda ma'naviy integratsiyaga xizmat qiluvchi har qanday shart-sharoitni, mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari doirasida, hamkorlikning muayyan holati deb emas, balki muayyan vaqt davomida shakllanadigan integratsiya jarayonining optimal mexanizmi sifatida qarash kerak. Bunda globallashtirish jarayoni iqtisodiy sistemalarni, madaniyat tendensiyalarini, dunyo regionlarini birlashtirar ekan, insoniyat jamiyati taraqqiyotining universal yo'nalishlari yaratilib boraveradi. Eng muhimi ma'naviy integratsiya umuminsoniy oliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi g'oya, qarashlarning rivojlanishi jarayoni hamdir. Bunda integratsiyaning mohiyati barcha davlatlar barpo etayotgan demokratik siyosiy

tizim, shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining ma'naviyatida, milliy xususiyatlarga mos tarzda namoyon bo'lib boradi.

O'zbekiston o'z aholisining polietnik, polikonfessional xususiyatlari bilan qadimgi davrlardanoq boshqa xududlardan ajralib turgan. Uning yirik savdo yo'llarida joylashganligi sababli turli xalqlar, davlatlarning e'tiborini jalb qilgan. SHu sababli O'zbekiston aholisi uchun milliy ma'naviyatlar integratsiyasi tabiiy-tarixiy xolat sifatida qabul qilingan. Oqibatda turli davrlarda O'zbekiston aholisining milliy tarkibi ham doimo o'zgarib borgan. Turli davrlarda O'zbekiston xududiga turli taraflardan turli millat vakillari ham ko'chib kelishgan.

Darhaqiqat, bir necha asrlar davomida buyuk ipak yo'li turli xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatlari integratsiyalashuvining makoni bo'lib kelmoqda.

Mamlakatda ma'naviy integratsiya muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etib boraveradi. Millatlararo munosabat, odamlarning muqobil dunyoqarashi, tafakkur tarzi, milliy o'zligini anglashi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. YA'ni S.Otamuratovning fikriga ko'ra, «Har bir davlatda va unda yashayotgan aholi iqtisodiyotini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash va jahondagi boshqa davlatlar bilan o'zaro integratsiyalashishida o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda amal qiladi. Agar unda millat manfaatlari o'z ifodasini topmas ekan, u taraqqiy qilishning boshqa maqbul-samarali yo'lida borishga harakat qiladi. Ana shu iqtisodiyotdagi umumiy manfaatlar millat vakillarini o'zaro bog'lab turad. Milliy ongning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi yagona til, milliy o'zligini anglash, ruhiyati, urf-odat, an'analar, qadriyatlar yagonaligi, hududi, davlati va iqtisodiy aloqalarining mavjudligi bilan bog'liq bo'ladi.

Har bir millat ongining yuksak darajada rivojlanib borishi o‘z manfaatlarini o‘zga millatlar manfaatlari bilan uyg‘un xolatda qarashga, o‘zga millatlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda teng hamkorlikka moyillik kabi xususiyatlari ham rivojlanadi. Milliy ongning rivojlanishi bunday mamlakatlardagi titul millatning, eng avvalo, o‘zga millatlarni o‘z atrofida birlashtirishi, ularni o‘zlari kabi yagona Vatan fuqarolari ekanligini tushunib etishi, ularning urf-odat, an‘ana va qadriyatlariga hurmat bilan qarashlarida o‘z ifodasini topadi»<sup>47</sup> - deb ta’kidlaydi.

Daraqiqat, har bir fuqaro o‘z taqdirini jamiyat va mamlakat taqdiri bilan bog‘liq holda tushunsa, turli millatlar o‘rtasidagi ijtimoiy birlik yuzaga kelib boradi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda 137 ta millat vakillari yashaydi. Ular yagona maqsad yo‘lida birlashib, Vatan obodligi va mamlakat ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilmoqdalar. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimiz xalqlar o‘rtasida millatlararo totuvlik ma’naviy kamolatga erishish yo‘lida faol fuqarolarni vujudga keltirishga xizmat qiladi.

### **III bob bo‘yicha xulosa**

III bob bo‘yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

Ilmiy-texnik taraqqiyotda globallashtirilgan texnologiya sivilizatsiya natijalari transformatsiyasining jamiyatga ta’sir doiralari va imkoniyatlari: birinchidan, texnologiya sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashtiruvchi har qanday milliy davlatning xalkaro mavqei va maqomi uning jahon hamjamiyati bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorlikdan manfaatdorligiga; ikkinchidan, tarixiy shakllangan milliy texnologiya sivilizatsiya an‘analarini, merosini saqlashiga, dunyo xalqlari tajribalarini transformatsiyasi va ijodiy rivojlantiruvchi ob’ektiv shart-sharoitlari sub’ektiv omillari etarlicha; uchinchidan, texnologiya sivilizatsiya

---

<sup>47</sup> Садулло Отамурадов. Глобализация в национальной-магической сфере. Т., «Ўзбекистон», 2013 йил, 339-340-бетлар.

globallashtirishning ob'ektiv xarakterini zaruriyatini, imkoniyatlarini anglash asosida, uning tendensiyasini, transformatsiyasi yo'nalishlarini prognozlashtirish vazifalarini belgilashga; to'rtinchidan, umuminsoniy va milliy qadriyatlar integratsiyasini global texnogen sivilizatsiya manfaatlari bilan uyg'unlashtirishning konstruktiv usullarini, ratsional vositalarini yaratishga; beshinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashtirishning muhim sub'ekti bo'lgan milliy davlatlar boshqaruv tizimi demokratik xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyotda ma'naviy integratsiya ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakillanishida fuqarolar faolligi oshishiga, hamda ularning ozod, obod va erkin, demokratik fuqarolik jamiyati qurish ishlarida jamiyatimiz aholisini ma'naviy integratsiya jarayoni negizida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda, ularni jiplashishga, uyushishga, safarbarlikni ta'minlashning, muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

## Xulosa

Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, texnika rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi, shu ma'noda dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fanga aloxida e'tibor qaratiladi. SHunisi e'tiborliki, ilm-fan ijtimoiy asoslarda yoki davlat tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilmasin, u davlat ahamiyatiga ega bo'ladi. O'tmishda ham olimlar, ijod ahli faoliyati davlat rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bizning zamonimizga kelib, u aksariyat davlatlarda xalq xo'jaligining ajralmas sohasiga aylangan va u davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi hamda uning ijrosi nazorat qilinadi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyaning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish negizida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini mustaxkamlash, hamda uning keltirib chiqarayotgan oqibatlaridan inson va jamiyat manfaatlariga mos keladigan to'g'ri yo'nalish kasb etishi kerak;

- hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti yo'nalishlari va tendensiyalarini, ularning jamiyatdagi roli va funksiyalarini kompleks va chuqur o'rganish;

- bugungi ilmiy-texnika taraqqiyotida qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolarini hal etish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

- bugungi kunda ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyotida ilmiy maktablarning ahamiyati va o'rnini hisobga olish;

- ilmiy-texnik taraqqiyotda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari birinchidan, sog'lom nasl, sog'lom avlodni hosil qilish ishlarining izchil yo'lga qo'yilganligi; ikkinchidan, dunyoga kelgan sog'lom naslni barkamol etib tarbiyalash uchun ularga dunyoviy bilimlarning



sir – asrorlarni o‘rganish ishlarining ta’lim muassasalarini tashkil etish orqali amalga oshirilayotganligi; uchinchidan, kuchli ijtimoiy himoya yuritish asosida barcha kam ta’minlangan oilalar, nogironlar va keksalarning munosib turmush kechirishlari uchun shart – sharoitlar yaratib berilayotganligi; to‘rtinchidan, zamonaviy bilim cho‘qqilarini egallash uchun zarur bo‘lgan axborot va kommunikatsion vositalar bilan ta’minlash ishlarining muntazam ravishda amalga oshirilayotganligi;

- ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi strategik vazifalardan biri bo‘lib, chegaralar yuvilib ketish ehtimolligi kuchli bo‘lgan bugungi informatsion davrda bu ishlar axborot jamiyatini ta’ sis etish imkonini beradi. SHunday ekan kelajagamiz poydevori bo‘lgan yoshlarni ilmiy-texnika yutuqlaridan to‘g‘ri foydalanish va ular ongida axborot xavfsizligini ta’minlash, ularni milliy mentalitetimiz ruhida tarbiyalashni davr o‘zi talab etmoqda;

- ilmiy-texnik taraqqiyotda birinchidan, texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvida har qanday milliy davlatning xalkaro mavqei va maqomi unng jahon hamjamiyati bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorlikdan manfaatdorligiga; ikkinchidan, tarixiy shakllangan milliy texnogen sivilizatsiya an’analarini, merosini saqlashiga, dunyo xalqlari tajribalarini transformatsiyasi va ijodiy rivojlantiruvchi ob’ektiv shart-sharoitlari sub’ektiv omillari etarlicha; uchinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvining ob’ektiv xarakterini zaruriyatini, imkoniyatlarini anglash asosida, uning tendensiyasini, transformatsiyasi yo‘nalishlarini prognozlash tirish vazifalarini belgilashga; to‘rtinchidan, umuminsoniy va milliy qadriyatlar integratsiyasini global texnogen sivilizatsiya manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishning konstruktiv usullarini, ratsional vositalarini yaratishga;

beshiichidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvining muhim sub'ekti bo'lgan milliy davlatlar boshkaruv tizimi demokratik xarakteriga bog'liq bo'ladi;

- bugungi ilmiy-texnik taraqqiyotda ma'naviy integratsiya ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakillanishida fuqarolar faolligi oshishiga, hamda ularning ozod, obod va erkin, demokratik fuqarolik jamiyati qurish ishlarida jamiyatimiz aholisini ma'naviy integratsiya jarayoni negizida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda, ularni jipslashishga, uyushishga, safarbarlikni ta'minlashning, muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

### **1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari:**

1.1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 40 b.

1.2 Ta’lim to’g’risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil 29 avgust // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – B. 20-29.

1.3 Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 y. 29 avgust // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – B. 30.

### **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari**

2.1 Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo’li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 364 b.

2.2 I.A.Karimov. Turkiston – umumiy uyimiz. T., «O‘zbekiston», 1995, 13-bet.

2.3 Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. 382 b.

2.4 Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida; Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston», 1997 yil, 299 - bet.

2.5 Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2001. 438 b.

2.6 Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2005. 446 b

2.7 Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B. 176.

2.8 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 55 b.

2.9 I.A.Karimov, “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O‘zbekiston”, 2011 yil.

### **3. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va maqolalar to‘plami**

3.1 Volkov G.N. istoki i gorizontы progressa i Sotsiologicheskie problemy razvitiya nauki i texniki. M. 1976, S 263.

3.2 Alibekov L.A., Nishonov S.A. Fan-texnika taraqqiyotida tabiat va inson. –T.: O‘zbekiston, 1984.

3.3 YAxshilikov J.YA. Ilmiy to‘plam. «Ilmiy texnika revolyusiyasi va inson omili». Samarqand, 1993 y.

3.4 Xayrullayev M.M. O‘rta Osiyo ilk uyg‘onish davri madaniyati. – Toshkent: Fan, 1994. – 94 b.

3.5 Pugachenkova G.A. Arxitekturalnye pamyatniki Moverannaxra epoxi Ulugbeka. Vsb. St.: Istorii epoxi Ulugbeka. – T: FAN, 1996, st. 241.

3.5 Shermuhamedov S. Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 34 b.

3.6 Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2000. 112 b.

3.7 Tulenov J. Ma‘naviyat va ijtimoiy taraqqiyot. - T: Mehnat, 2000. 38 b.

3.8 Xonazarov K. Razvitiye mejnacionalnix otnosheniy v nezavisimom Uzbekistane. - Tashkent: Uzbekistan, 2001. – 70 s.

3.9 J. YAxshilikov, SH. S. Qo‘shaqov, O.A. Abdurasulov. “Mustaqillik va muhandis- texnik ziyolilar ijodiy faolligi muammolari T., “FAN” 2001 yil, 7 bet.

3.10 Mahmudov T. Mustaqillik va ma‘naviyat. –T: Sharq, 2001. –158 b.

3.11 Ahmedov A. Mirzo Ulug‘bek. // Ma‘naviyat yulduzlari. Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001, 174-bet.

3.12 Boturxon Valixo‘jaev. Samarqandda oliy ta‘lim – Madrasa-yi Oliya – universitet tarixidan lavhalar. Samarqand, “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 2001, 14-bet.

3.13. Yoshlar ongida g‘oyaviy dunyoqarashni shakllantirish. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2002. – 188 b.

3.14 Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 134 b.

3.15 Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiya va demokratik taraqqiyot sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 208 b.

3.16 Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. – Toshkent: Akadyemiya, 2005. - 368 b.

3.17 Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 270 b.

3.18 Mirzayeva M. Transkommunikatsiya va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent: Fan, 2008. – 170 b.

3.19 Otamurodov S. Globallashuv va millat. -T: Yangi asr avlodi. 2008. 201 b.

3.20 Islom Karimov. “O‘rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarning tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilishi marosimidagi nutqi. Samarqand, “Zarafshon” gazetasi, 2014 yil, 17 may.

3.21 “Fan va ta‘lim integratsiyasining nazariy-amaliy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent-Samarqand-Buxoro-2014, 16-21-betlar.

3.22 J.YA.YAxshilikov. Ulug‘bek davrida ilm-fan taraqqiyoti. // Mirzo Ulug‘bek merosi va hozirgi zamon. Ilmiy konferensiya materiallari. T.: 2014, 34-35-betlar.

3.23 Global oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy uslublari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. – Navoiy-2015, 64-67-betlar.

**Internet saytlari:**

1. <http://www.lex.uz/> O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari portali
2. <http://www.xs.uz/> "Xalq so`zi" gazetasi
3. <http://ziyonet.uz>